3s ◆PARTIYA dasturida

**Oliy ta'lim muassasalari soni** 2017-yilda 78 ta bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ular soni 210 tani tashkil etmoqda. Talabalar soni 2017-yildagi 300 ming nafardan bugun 1 million 350 ming nafarga yetdi.

№ 18 (1250) 2024-yil
15-may, chorshanba
ISSN 2010-7714

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

# milliy tiklanish

Adadi – 5 263 1995-yil 10-iyundan chiqa boshlagan www.mt.uz \ milliytiklanish2022@umail.uz

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish.gazetasi | t.me/milliy_tiklanish_gazetasi

## 198 NAFAR millat oydinlari oqlandi



7s

## Til o'rganishga sarflangan MILLIARDLAR




4s

## ◆ Deputat minbari



2s

# OSIYO XOTIN-QIZLARI

## forumi yakunida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi



**SAMARQAND** shahrida joriy yil 13 - 14-may kunlari Osiyo xotin-qizlari forumi bo'lib o'tdi.

## «MILLIY TIKLANISH»



Alisher QODIROV
partiya Markaziy kengashi raisi

### O'ZBEKISTONDA YASHAYOTGAN BARCHA MILLATLI VATANDOSHLAR O'ZBEK TILINI BILISHLARI SHART!

◆ Aks-sado

So'zsiz, Rossiyaga ishga borayotganlar rus tilini bilishlari shart, lekin bu O'zbekistonda yashayotgan ruslarni o'zbek tilini bilishlari shart emas degani emas! O'zbekistonda yashayotgan barcha millatli vatandoshlar o'zbek tilini bilishlari shart. Qonunlarimizda bosqichma-bosqich bog'cha va boshlang'ich ta'limda boshqa millatli vatandoshlarga o'z ona tili va qadriyatlarini o'rganishiga sharoit yaratish bilan bir qatorda, o'zbek tili majburiy o'rganadigan til sifatida belgilanishi kerak. O'zbek tilini bilmaydigan inson nafaqat davlat xizmatida ishlashi, balki davlat xizmatlaridan foydalanishi ham mumkin bo'lmay qolishiga erishishimiz kerak.

## ANONSLAR

### 113

«International Education First Center» tomonidan tuzilgan reytingda ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha O'zbekiston 113 davlat orasida 93-o'rinni egallagan. IELTS imtihonini topshirish bo'yicha esa 34-o'rinda qayd etilgan. Ammo tilshunoslarning fikricha, IELTS sertifikatiga ega bo'lish bu ingliz tilini mukammal bilish degani emas.

4-sahifa

### TIZIMNI ADOLATLI YO'LGA QO'YISH HAR BIRIMIZGA BOG'LIQ!

Kuchli milliy kadrlar tayyorlash tizimini adolatli tizimga aylantirish lozimligi haqidagi fikrlar chindan ham og'riqli fikrlar bo'ldi. Bundan sohaning har bir vakili, ayniqsa, mutasaddilari jiddiy xulosalar chiqarishlari bot-bot takrorlanayotgani bejiz emas...

3-sahifa

» RAQOBAT VA SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI 3s

» ENG QIMMAT UYLAR QAYERDA? 7s

KO'CHMA RADAR
» O'RNATISH TARTIBI HAQIDA BILASIZMI? 8s

167 NAFAR
XOTIN-QIZ IMTIYOZ ASOSIDA TAHSIL OLMOQDA 6s



ZANGLAGAN KALIT
XAZINALAR QULFI NEGA OCHILMAYAPTI? 5s

JANOB SUDYA, kimning buyurtmasini bajaryapsiz? 6s

# OSIYO XOTIN-QIZLARI

## forumi yakunida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi

**Samarqand shahrida** joriy yil 13 – 14-may kunlari Osiyo xotin-qizlari forumi bo‘lib o‘tdi.

**“Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondashuv” mavzusiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanda 30 dan ortiq xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlardan nufuzli mehmonlar – Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlarining ayol a’zolari, hukumatlari rahbarlari, xorijiy davlatlarning mamlakatimizdagi vakolatxonalari hamda xorijiy tashkilotlarning 40 nafardan ortiq vakillari ishtirok etdi.**

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ilgari surgan tashabbusi asosida tashkil etilgan forumda so‘zga chiqqan BMT, Parlament assambleyasi kabi yirik xalqaro tashkilotlar vakillari O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlarni yuqori baholadi.

Forumda O‘zbekiston Senati raisi Tanzila Norboyeva Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning yuksak siyosiy irodasi tufayli xotin-qizlarning manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash va oilalar mustahkamligi masalalari mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganini qayd etdi.

Natijada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma’naviy hayotimizda, muhim qarorlar qabul qilinishida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli ravishda kengayib bormoqda.

Anjumanda ishtirokchilar o‘zaro tajribalar almashish, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlarining bu boradagi zamonaviy yondashuvlarini o‘rganish maqsadida sessiyalarga bo‘lingan holda fikr almashdi.

Bo‘lib o‘tgan sakkiz sessiyada gender tenglikni ta’minlash, bu boradagi xalqaro hujjatlar, ularning bajarilishi, gender bo‘yicha stretegiyalarni milliy maydonda amalga oshirish, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini bartaraf etishning mintaqaviy jihatlari, ularni bartaraf etish bo‘yicha preventiv chora-tadbirlar, nodavlat tashkilotlarning xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi ilg‘or tajribasi, amaliyoti va innovatsion yondashuvlar kabi mavzularda ma’ruzalar tinglandi va muzokaralar olib borildi.

Aytib o‘tish kerakki, O‘zbekistonda sohaga doir xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik bazasi shakllantirildi. Keyingi 5 yilda 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi muhim qonunlar qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi.

Qonunchilikka normativ-huquqiy hujjatlarni gender ekspertizadan o‘tkazish, genderga asoslangan milliy byudjetni qabul qilish, gender audit kabi tushunchalar kiritilib, amaliyotga joriy qilinmoqda.

Gender tenglik siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va uning to‘laqonli amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida 2030-yilga qadar mo‘ljallangan gender Strategiyasi qabul qilindi. Uni barcha soha va tarmoqlarga joriy qilish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Ikki kunlik forum doirasidagi muloqotlarda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib, bu boradagi sa’y-harakat hamda imkoniyatlar tahlil qilindi.

Xotin-qizlarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish hamda imkoniyatlarni ochib berish, shu jumladan, mehnatga teng haq to‘lash va Osiyoda ayollar tadbirkorligi uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab olindi.

Forum yakunida olib borilgan muzokara va muhokamalar natijasi sifatida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini har tomonlama mustahkamlash va ularni amalda ta’minlash, gender tenglikka erishish, zo‘ravonlikka barham berish, gumanitar huquqni hurmat qilishga qaratilgan maqsadlar aks etgan.

Jumladan, Osiyo mamlakatlarida XXI asrda har kim tenglik, taraqqiyot va farovonlik sharoitida yashab, xotin-qizlar va erkaklar adolatli dunyo barpo etish yo‘lida birgalikda harakat qiladigan jamiyat shakllanishini ta’minlash vazifasi qo‘yildi.

**Norgul ABDURAIMOVA, O‘zA muxbiri**



> GENDER TENGLIK SIYOSATINI TO‘G‘RI YO‘LGA QO‘YISH VA UNING TO‘LAQONLI AMALGA OSHIRILISHINI TA’MINLASH MAQSADIDA 2030-YILGA QADAR MO‘LJALLANGAN GENDER STRATEGIYASI QABUL QILINDI.



✓ Deputat minbari

# Osiyo mintaqasi ayollari uchun muhim maydon



**Tursunoy MURATOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

**Ta’kidlash lozim, Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini kafolatlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.**

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga davlat boshqaruvi ishlarini, shuningdek, jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashi belgilab qo‘yildi. «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi hamda «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash maqsadida 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish Strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu sa’y-harakatlar, qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘zbek ayolining ham oila, ham jamiyatdagi nufuzini yuksaltirishga xizmat qilayotir.

Barcha sohalarda ayollar ishtiroki sezilarli ravishda kengayishi natijasida so‘nggi yetti yilda ayollarning davlat boshqaruvidagi ulushi 27 foizdan 35 foizga ko‘tarildi. Bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a’zolarining 25 foizi ayollardan iborat.

Ishbilarmon ayollar safi ham ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Yuz minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. Salkam yarim million nafari ish bilan ta’minlandi. Hozirgi kunda oliygohlarda ta’lim olayotgan talabalarning yarmidan ziyodini qizlar tashkil etmoqda.

Albatta, mamlakatimizda bu borada olib borayotgan tizimli chora-tadbirlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham munosib e’tirof etilmoqda. Jahon banki indeksida O‘zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etildi. Ochiq gender ma’lumotlar indeksida esa eng yaxshi 20 ta davlat qatoridan joy oldi.

13-14 may kunlari Samarqand shahri mezbonligida o‘tkazilgan Osiyo xalqaro xotin-qizlar forumi esa Prezidentimiz tashabbusining amaldagi ro‘yobi bo‘lib, mintaqa mamlakatlari yetakchi ayollarining bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvi hamda iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirishda o‘zaro tajriba almashish, muhim mavzularda fikrlashish imkoniyatini taqdim etgani bilan nihoyatda ahamiyatli bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining Osiyo xotin-qizlar forumi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida qayd etilganidek, yurtimizda ilk bor o‘tkazilayotgan xalqaro anjuman xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalardagi faolligini yanada oshirish, o‘zaro tajriba almashish va do‘stona hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga munosib hissa qo‘shadi.

Forumda so‘zga chiqqan BMT Bosh kotibi o‘rinbosari, «BMT-ayollar» tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus xonim avvalo, mamlakatingizda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini targ‘ib qilishga sodiqligi, ushbu forumni o‘tkazish tashabbusi uchun O‘zbekiston Prezidentiga minnatdorlik bildirdi. Bu xalqaro forum ayni vaqtida tashkil etilgani bilan ahamiyatli ekani, tadbirni o‘tkazish uchun Samarqand shahri bejiz tanlanmagani, tarix va zamonaviylik uyg‘unlashgan bu go‘zal va maftunkor zamin, xuddi tarixda bo‘lganidek, bugungi kunda ham barchani birdamlik va do‘stlikka undayotganini ta’kidladi.

Ikki kunlik forumda xotin-qizlarning fan, ta’lim va innovatsion faoliyatdagi ishtiroki hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishi, hozirgi global iqtisodiyotda ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag‘allikni kamaytirish, tadbirkorlik, yetakchilik va innovatsiyalarga jalb etish masalalari muhokama qilindi.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xotin-qizlarning ishtiroki masalasi ko‘rib chiqildi. Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, biznes va jamiyatda ularning ishtirokini rag‘batlantirishda parlamentlarning o‘rni, genderga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish, moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishda gender tafovutni bartaraf etish, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllariga barham berish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, «Yashil» iqtisodiyotni targ‘ib qilish, iqlim o‘zgarishining mintaqadagi gender muammolarga ta’siri masalasida hamda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ilg‘or tajribasi va innovatsion yondashuvlari ham ko‘rib chiqildi.

E’tiborlisi, olima va siyosatshunos ayollar tomonidan xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu boradagi to‘siqlarga barham berishga qaratilgan aniq taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Ishonchim komilki, Samarqand forumida bildirilgan fikr-mulohazar va tavsiyalar qit’amiz xotin-qizlari uchun har tomonlama foydali va manfaatli bo‘ladi. Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, ayollarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat tinchlik, balki o‘sha davlatning iqtisodiy o‘sishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng asosiysi, oilada ayol kishining iqtisodiy daromadga ega bo‘lishi bolalarning ta’limi va salomatligiga ham ko‘proq nazoratni olib keladi.

✓ Partiya loyihalari












Oliy ta'lim muassasalari ko'paygani sababli chet el OTMlariga o'qishga kirish kamaydi. Avvallari ko'plab yoshlarimiz chet eldagi o'qishlarga kirishi tufayli turli muammolarga, noaniq axborot xurujlari ta'siriga tushib qolishi kuzatilar edi.





# TIZIMNI ADOLATLI YO'LGA QO'YISH HAR BIRIMIZGA BOG'LIQ!

**Kuchli milliy kadrlar tayyorlash tizimini adolatli tizimga aylantirish lozimligi haqidagi fikrlar chindan ham og'riqli fikrlar bo'ldi. Bundan sohaning har bir vakili, ayniqsa, mutasaddilari jiddiy xulosalar chiqarishlari bot-bot takrorlanayotgani bejiz emas...**

Joriy yil 6-may kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida oliy ta'lim yo'nalishlarini optimallashtirish, qabul va malaka tizimlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti ham ayni maqsadlarga hamohang bo'ldi.

– Yangi o'quv yili oldidan oliy ta'limni yangi bosqichga ko'tarishga bag'ishlangan mazkur taqdimot ta'lim sifatini oshirish, kvotalarni to'g'ri yo'naltirish, grantlarni taqsimlashda adolatni ta'minlash va yoshlar o'z ustida tinimsiz ishlashi uchun istiqbolli dastur bo'ldi, – deya o'z fikrini bildiradi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati To'lqin Teshaboyev. – Ilgari davlat granti asosida o'qishga kirgan ba'zi talabalar «grantga kirganman, o'qisam-o'qimasam ham diplom olaman», degan xayolda o'qir edi. Endi ta'lim xalqaro talablar asosida yanada ochiqlik, shaffoflik tamoyillari bilan takomillashadi.

Grantda o'qiyotgan talabalarning kredit modulida o'zlashtirish ko'rsatkichlari past deya qayd etilsa, u egallab turgan grant imtiyozi – fanlarni yaxshi o'zlashtirgan boshqa talabaga o'tkazib beriladi. Bu nafaqat talabalarni o'qishga jalb qiladi, balki sog'lom raqobat muhitini ham shakllantiradi.

Prezidentimiz mazkur yig'ilishda ta'limning ichiga qanday kirib borish, mavjud muammolarni aniqlash va unga qanday yondashish kerakligini yana bir bor eslatdi, desak xato bo'lmaydi.

Chunki oliy ta'lim muassasalarida ilgari ma'lum bir yo'nalishda ikkita grant ajratilgan bo'lsa, yangi o'quv yilidan boshlab yuqori ball to'plagan abituriyentlarga o'z yo'nalishi bo'yicha ko'proq grant o'rinlari beriladi. Bu esa minglab iqtidorli, bilimli abituriyentlar o'qishga kirishini kafolatlaydi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz taraqqiyotini ta'lim sifati bilan bog'lagan holda so'nggi 7 yilda misli ko'rilmagan islohotlar amalga oshirildi. Natijada maktabgacha ta'lim qamrov darajasi 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'lim esa 9 foizdan 42 foizga oshdi. O'z navbatida, oliygohlar soni 77 tadan 212 taga yetdi. Sohada raqobatni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektorni jalb qilish orqali xorijiy oliygohlar 24 tadan, nodavlat oliygohlar 27 tadan oshdi.

Oliy ta'lim muassasalari ko'paygani sababli chet el OTMlariga o'qishga kirish kamaydi. Avvallari ko'plab yoshlarimiz chet eldagi o'qishlarga kirishi tufayli turli muammolarga, noaniq axborot xurujlari ta'siriga tushib qolishi kuzatilar edi. Shu vajdan «o'zimizning yurtda qachon o'qishga kirish osonlashar ekan», degan talab bor edi.

Yangi O'zbekiston islohotlarida bunday muammolar raqamlashtirilgan holda, shu zaminda tashkil etildi. Binobarin, mamlakatimizda yiliga 200 mingdan ziyod yoshlar diplom olib, mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, qancha oliy ma'lumotli kadrlar ko'paysa, ularga shuncha ish o'rni yaratish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi investitsion jozibadorlik, yaratilgan qulay tadbirkorlik va biznes muhiti evaziga respublikamizda yiliga 3 mingdan ziyod sanoat korxonalari tashkil etilib, 146 ming yangi ish o'rni yaratilmoqda. Ammo aytish joizki, 25 mingdan ziyod muhandis va texnologlarga ehtiyoj borligi aniqlangan.

> Mamlakatimiz taraqqiyotini ta'lim sifati bilan bog'lagan holda so'nggi 7 yilda misli ko'rilmagan islohotlar amalga oshirildi. Natijada maktabgacha ta'lim qamrov darajasi 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'lim esa 9 foizdan 42 foizga oshdi. O'z navbatida, oliygohlar soni 77 tadan 212 taga yetdi.

Bu yo'nalishda 33 ta davlat oliygohida kadrlar tayyorlansa-da, ta'lim sifati talab darajasida emas. Ilg'or xorijiy universitetlarda allaqachon to'xtatilgan ayrim fan va mutaxassisliklar hali ham o'qitilmoqda. O'quv reja va dasturlarining qariyb yarmi mehnat bozori va xalqaro standartlarga javob bermaydi.

Shu masalalarga yechim sifatida Prezidentimiz taqdimotda bitiruvchi kadrlarning bandligini ta'minlash, mutaxassisligidan kelib chiqib ish o'rinlari yaratish, kvotalarni ajratish bo'yicha iqtisodiy tahlillar olib bordi.

Bugungi kunda bakalavriatda 306 ta yo'nalish, magistraturada 625 ta mutaxassislik borligi, ammo ularning ayrimlari xalqaro standartlar va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bermasligi, malaka tavsifni takomillashtirish va qo'shimcha qiymat yaratishga urg'u berdi.

Shu o'rinda e'tibor qiladigan bo'lsak, ta'lim sifatini oshirish borasidagi islohotlarda dekanatlarning o'rni beqiyos. Dekanatlar iqtidorli talabalar guruhini tuzish, ularning faoliyatini nazorat qilish va fakultet bo'yicha iqtidorli talabalar bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega bo'lgan o'qituvchilarni ularga biriktirib, faoliyat yuritadi. Fakultetda iqtidorli talabalarni aniqlash bo'yicha kafedraga o'z takliflarini kirgizib, yuqori reyting baliga ega bo'lgan talabalarni iqtidorlilar guruhiga o'tkazishni muvofiqlashtiradi.

Prezidentimiz aynan dekanatlarning maqsad-vazifalarini yanada kuchaytirish, ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish, dekanatlar va boshqa ma'muriy tuzilmalarni optimallashtirishga e'tibor qaratdi. Binobarin, 2024 – 2025-o'quv yili boshlangunga qadar jarayonlarni to'liq qayta ko'rib chiqib, yangi tizimni joriy etish bizning ustuvor vazifamizga aylandi.

Tan olishimiz kerak, ta'lim tizimida o'tgan 7 yildagi jadal va pragmatik islohotlar sababli yangilanishlar yuz berdi. Ilgari talabalarimiz yangi o'quv yilini paxta dalalarida chanoqlar bilan kutib olgan bo'lsa, Prezidentimizning uzoqni ko'zlab ochiq siyosat yuritishi, eng muhimi, mamlakat kelajagini faqat ta'limda ko'rishi talabalarga o'quv yilini oliygohlarda kutib olish imkonini berdi.

Keyingi ta'kidlab o'tilgan asosiy masala – oliy ta'limga qabul qilish tizimini yanada adolatli tashkil qilish va davlat grantlarini iqtidorli yigit-qizlarga yo'naltirish bo'ldi. Hozirgi qabul tizimi, kvotalarning taqsimlanishi raqobatni to'liq ta'minlamayotgani. Masalan, ayrim abituriyentlar yuqori ball to'plasa-da, topshirgan oliygohining kvotasi soniga qarab, o'qishga kirolmay qolishi mumkinligi misol keltirildi.

Prezidentimizning taqdimotda «Bu tizimni adolatli yo'lga qo'yish, yoshlarga va ota-onalarga yetkazish zarur», degan so'zlari ijtimoiy davlatimizning naqadar rivoj topayotganini, islohotlarning har biri xalqni rozi qilish tamoyili asosida bo'layotganini anglatadi.

Muxtasar qilib aytganda, qabul kvotalarini ish beruvchi talablariga mos, ular bilan kelishuvga erishgan holda «Oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi» asosida ishlab chiqishimiz zarur.

Shu bilan birga, nafaqat milliy mehnat bozorida, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatlasha oladigan, kasb-hunar va yuqori malaka tavsifga ega bo'lgan vatanparvar kadrlarni tayyorlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

**Abdulaziz RUSTAMOV,**
**O'zA muxbiri**

✓ Кутинг!

**«KLASSIK FISHING», «FOKUSLANGAN» YOKI «SUPER-FISHING» HAQIDA ESHITGANMISIZ? «IJTIMOIY FISHING» HAQIDA-CHI?**

**Unda keyingi sonda o'qing!**

# Raqobat va sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori



Abdumalik AKRAMOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

**Mamlakatimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Boisi, kuchli ta'lim va kadrlarsiz mamlakatni yuksaltirib bo'lmaydi. Agar jamiyatda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi. Prezidentimiz huzurida shu yil 6-may kuni oliy ta'lim tizimi bo'yicha o'tkazilgan taqdimotda ham aynan bilimli va salohiyatli kadrlarni tayyorlash, tanlab olish, imtiyozlar bilan qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilib, mutasaddilar oldiga aniq vazifalar belgilab berildi.**

Chunki so'nggi yetti-sakkiz yil ichida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar mamlakatimiz aholisining 60 foizga yaqin qismini tashkil etayotgan yoshlarimiz orasidan bilimli yoshlarni adolatli tanlov asosida oliy ta'limga qamrab olish, sohalar bo'yicha malakali mutaxassis darajasida o'qitish mamlakatimiz kelajagi bugungi farzandlarmizga bog'liq ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Agar raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasalari soni 2017-yilda 78 ta bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ular soni 210 tani tashkil etmoqda. Talabalar soni 2017-yildagi 300 ming nafardan bugun 1 million 350 ming nafarga yetdi. Quvonarlisi, ilmli, iqtidorli yoshlarimizni oliy ta'lim olishlari uchun ajratilgan davlat granti asosida qabul kvotalari 2016-yilga qadar yildan yilga qisqarib borgan bo'lsa, 2017-yildan aksincha bo'ldi.

E'tibor bering, bundan yetti yil avval davlat buyurtmasi asosida o'qiyotgan talabalar soni 106 ming nafarni tashkil etardi. 2024-yilga kelib birgina bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qiyotgan talabalar soni 332 ming nafardan ortiqni tashkil etib, qamrov darajasi 9 foizdan 42 foizga yetgan.

Hozirgi kunda bakalavriatda 306 ta ta'lim yo'nalishlari, magistraturada esa 625 ta mutaxassislik mavjud bo'lib, ularning ayrimlari xalqaro standartlar va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos emas. Bu bitiruvchilarda to'liq malaka shakllanishi hamda ularni ishga joylashishida qiyinchiliklar tug'diryapti. Demak, bugun ilg'or xorijiy tajriba asosida bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud.

Taqdimotda ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratilib, ta'limning xalqaro tasnifi, ilg'or xorijiy tajriba asosida bakalavriat va magistratura yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish hamda ayni paytda talab yuqori bo'lgan sohalarda yangi yo'nalishlar ochish bo'yicha takliflar bildirildi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonlarini raqamlashtirgan holda dekanat va boshqa ma'muriy tuzilmalarni optimallashtirish masalasi muhokama qilinib, 1-sentyabrga qadar o'quv jarayonlarini to'liq qayta ko'rib chiqib, yangi tizimni joriy etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Davlatimiz rahbarining oliy ta'limga qabul tizimini yanada adolatli qilish va davlat grantlarini iqtidorga yo'naltirish borasida bildirgan fikrlari bugungi talaba-yoshlar o'y-xayoli va orzusidagi voqelik real hayotda o'z isbotini topishiga asos bo'ldi desak yanglishmaymiz. Negaki, 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan inson har qanday sohada raqobat bo'lmasa rivojlanish bo'lmasligini tobora tushunib, anglab yetayotgan zamonda grant o'rinlarni talabaning bilimiga, fanlarni sifatli o'zlashtirishiga va eng asosiysi, iqtidorga yo'naltirishi o'sib kelayotgan yosh avlodning ertangi kunga ishonchini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Sababi, hozir amalda bo'lgan qabul tizimi va kvotalarning taqsimlanishi talaba-yoshlar o'rtasida raqobatni to'liq ta'minlamasligi bois ayrim abituriyentlar test sinovlari natijalariga ko'ra yuqori ball to'plagan bo'lsa hujjat topshirgan oliy ta'lim muassasasining kvotasi soniga qarab o'qishga kirolmay qolgan holatlari ko'p kuzatilgan.

Amaliyotga kiritilishi ko'zda tutilgan yangi tartibga ko'ra, muayyan bir yo'nalishga ajratilgan davlat granti doirasida yuqori ball to'plagan abituriyent, tanlagan oliy ta'lim muassasasidan qat'iy nazar, davlat granti bo'yicha o'qishga tavsiya etilishi yuksak orzu-istaklar bo'yicha katta hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarimiz uchun adolatli tanlov bo'ldi desak, ayni haqiqat.

Yangi tartibga ko'ra, endi davlat granti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 3 yoki 4 yil davomida o'qiydigan bitta talabaga emas, balki har o'quv yili davomida o'qitiladigan fanlarni yuqori baholarga o'zlashtirgan talabalar o'rtasida qayta taqsimlab beriladi. Bu jarayonda test sinovlari yoki ijodiy imtihon natijalari bo'yicha davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan talabaning oliy ta'lim muassasasida davlat granti bo'yicha o'qishi tom ma'noda bir o'quv yili bo'yicha kafolatlanadi.

Soddaroq qilib aytganda, agar davlat granti asosida qabul qilingan talaba o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'quv yili davomida yuqori ko'rsatkichlarga erisha olmasa, to'lov-shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan hamda fanlarni o'zlashtirish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega talabaga davlat granti asosida o'qish imkoniyatini beradi.

Ta'kidlash lozim, qabul qilinayotgan yangi tartib adolatli raqobatni yuzaga keltirib, talabani o'z ustida tinimsiz ishlashi, o'qib-izlanishi, kelgusida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Aslida ushbu sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad ham oliy ta'limni qayta ko'rib chiqish orqali o'qitishda adolatni ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, xususan, muhandislik va texnologiya sohalarida malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish, akademik ta'limni tez sur'atda, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqishdan iboratdir.

Har bir sohaning rivojlanishi bevosita ta'lim va ilmga bog'liq ekan, biz, deputatlar Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda doim faol va tashabbuskor bo'lishimiz kerak. Zotan, bugun yurtimizda ta'lim sifatini oshirishga berilayotgan katta e'tibor ertaga o'z samarasini berishi, shubhasiz.

> Hamzaga malomat toshlari otildi. Qachongacha bunday ishlar davom etadi?! Sho'roni sho'ro dedik, mustamlakachi shunday yo'l tutadi, bu azaliy udum, deb o'zni yupatdik. Lekin mustaqil bo'lganimizga ham 33 yil to'ldi. Nega hali-hanuz ulug'larimiz himoyamizda emas?





Ulug'bek HAMDAM

# Nega haligacha ulug'larimiz HIMOYAMIZDA EMAS?!

**Bu maqola 7-8 yillar oldin yozilgan bo'lib, o'qib ko'rsam, bugunimizga ham juda tegishli ekan. Ayniqsa, yaqinda ulug' hofiz Sherali Jo'rayevga bo'lgan munosabatimizni eslasam, biz juda ham kam o'zgaribmiz, deb o'ylab qoldim. Hatto deyarli o'zgarmabmiz...**

Biz, Sharq xalqlari, insonni borboricha sevishni bilmaymiz: yaxshi ko'rishu yomon ko'rishlarimizda me'yor yo'q. Maqtasak, osmonu falakka chiqarib yuboramiz, tanqid qilsak esa, yerning ostiga kiritib tashlaymiz.

Keling, masalaning tanqidiy tomonini ko'rib chiqaylik.

Biron kishi, kim bo'lishidan qat'iy nazar, bir xatoga yo'l qo'ygan va yoki bizga yoqmaydigan biron ishga qo'l urgan bo'lsa, tamom, kerak bo'lsa, urug' aymog'i bilan butunlay «puf, sassiq!»qa chiqaramiz. Mana, misol uchun, jadidlarga munosabatimiz xuddi shunday. O'zbek xalqi madaniyati, adabiyoti, ilmi va san'ati tarixida jadidlar darajasida katta xizmat qilgan bir necha ulug' shaxsni ko'rsatish mumkin, xolos. Qoshg'ariy, Navoiy, Bobur... Lekin shunday xizmat qilgan ulug' zotlarning ham hurmatini joyiga qo'ya olmay kelyapmiz. Chunonchi, favqulotda samimiyatiga ko'ra, o'z tili bilan qilgan e'tiroflari bois Boburdan hatto yuz burmoqchi bo'ladigan kaslar bor oramizda. Burdik ham deylik. Shunda ul zotni darhol boshqa xalqlar, aytaylik, mo'g'ullar «ilib» ketadi. Zero, dunyoda Boburga «xaridorlar» ko'p. Nafsilambrini aytganda, boshqa ulug'larimizni ham «o'ziniki qilib olish»ga tayyorlar tiqilib yotibdi. Shu kerakmi bizga?.. Jadidlar-chi? Ularning nega ko'kragidan itaramiz?

Men «Sharq yulduzi» jurnalida muharrir bo'lib ishlab yurgan kezlarim necha bor «tepa»dan «Fitratni bermanglar, jadid degan so'zni tilga olmanglar!», degan topshiriqlar keldi. Hatto demokrat ma'rifatparvar shoir Furqat, ulug' valiy zot Rumiy hazratlari, o'zimizning Rauf aka, ustoz shoir Rauf Parfi haqida ham jurnalda «lom, mim» deyish taqiqlandi. Yaqindagina bo'ldi bu ishlar. Lekin nega bo'ldi? Kim bu taqiqlar tepasida turibdi. Men davlat rahbarining bu kabi ishlarni o'rganib chiqib, bundayin bo'lmag'ur xulosalarga kelganiga ishonmayman. Mana, kuni kecha Hamzaga shunday malomat toshlari otildi. Qachongacha bunday ishlar davom etadi?! Sho'roni sho'ro dedik, mustamlakachi shunday yo'l tutadi, bu azaliy udum, deb o'zni yupatdik. Lekin mustaqil bo'lganimizga ham 33 yil to'ldi. Nega hali-hanuz ulug'larimiz himoyamizda emas? Dunyoda bormikan o'z buyuklariga o'zi tosh otadigan bizdek yana bir xalq? Hamzaning 40 yoshida bir marta pichoqlab, so'ng toshbo'ron qilib o'ldirganlari yetmaydimi? Endi xotirasini ham bulg'aylikmi? Hamza kabilarning ayblari sizu bizning ozod yurtda ozod bo'lib yashashimizni istaganidami? Shu yo'lda o'zini o'tga-cho'qqa urib, chirpinib, goh to'g'ri, goh xato yo'lga kirib qolganidami?

Nega biz – Sharq xalqlari inson faoliyatini to'g'ri baholashni bilmaymiz? Xo'p, ulug'larimiz ham o'z hayotlari davomida u yoki bu kabi xatolarga yo'l qo'ygandir, deylik. Shunga shunchami? Shunchami deganim, endi ularning boshqa xizmatlaridan ko'z yumiladimi?! Ular, axir, juda ham buyuk-ku!.. Bunday xizmatga noil bo'lish uchun insonning baxti kulib tug'ilishi kerakligini nahotki bilmasak! Ming yilda bir beriladigan imkonlar davrida yashadi Hamza va hamzalar!.. U yog'ini so'rasangiz, kim farishta? Kim bilib yo bilmay xato qilmaydi? Xato qilmaslikdan biron bir zot kafolatlanganmi o'zi?.. Qolaversa, insonga uning bir-ikki masalada noto'g'ri o'ylagani yo ish tutgani uchun keskin baho berish va taqdirini hal qilish qanchalar to'g'ri?..

Yaqinda ulug' rus yozuvchisi L. N. Tolstoy haqida ikki qismli hujjatli film ko'rdim. Yevropaliklar ishlagan ekan. Jurnalist-muallif Tolstoyning o'lmas va buyuk xizmatlarini sanar ekan, uning o'ziga yarasha xatolarini e'tirof etishdan, ularni muhokama qilishdan aslo cho'chimagan. Ammo, e'tibor bering, Tolstoyning inson va yozuvchi sifatidagi kamchiliklarini sanash jurnalistga uning dunyoning eng ulkan yozuvchisi deb tan olishiga va shunday aks ettirishiga aslo monelik qilmagan. Men shu haqda gapirmoqchiman. Ushbu yozuvdan murod ham shu! Xo'sh, bizda-chi? Hamza nima qildi? Furqatu Fitrat, Rauf Parfi-chi?.. Bu ulug' zotlar biz uchun, o'zbek millati uchun qilgan xizmatlarini o'ndan, o'nni qo'ya turaylik, yuzdan birini ular qismatiga hukm o'qiyotganlarning hammasi jam bo'lib ham qilganmikan? Qila olganmikin yoki endi qila olarmikan? Shu millat uchun, uning kelajagi uchun yonib-kuyib ketishmadimi jadid bobolarimiz! Ularning nomlarini tarix sahnasidan tushirish qanday maqsadlarga xizmat qiladi? Ularning xizmatini o'zlashtirib, o'ziniki qilishgami?.. Bunga yo'l qo'yib bergan xalq-chi?.. Xalq sanaladimi o'zi?..

Xo'p, Furqat yo Fitrat domlalar chet elda yurgan kezlari qandaydir g'oyalardan ta'sirlangan bo'lishsa bo'lishgandir. Yoki Hamza azbaroyi ishonganidan 1917-yildan keyin sovet mafkurasini yoqlab asarlar bitgandir. Qodiriyda yo'qmi bunday asar yoki Cho'lponda? Axir, davr murakkab edi, ular ham jon shirinida murosa qilib ko'rishdi, lekin bo'lmadi-ku! Biri toshbo'ron qilinib, qolgan ikkitasi otilib sob bo'ldi-ku!.. Agar o'sha bobolarimiz dushmanga chinakamiga xizmat qilib, dushman tomonida bo'lganda, o'ldirilarmidi?!

Biz esa, ulug'larimiz merosiga bus-butun holda qarab, yaxlit bahosini bera olyapmizmi? Bugun Furqat, Fitrat yoki Hamzani tarixiy xizmatlarini yo'qqa chiqarmoqchi bo'lganlar, ertaga bu tarix sahnasidan o'zlarining supirilib ketishini, yuqorida nomlari zikr etilgan yurt va adabiyot fidoyilari yana o'z o'rinlariga borib turishlarini bilarmikan?.. Bilmasalar, shoir aytmoqchi, «Alarga yetkarib qo'ying!» Yetkazib qo'yaylikki, ular ham o'z vaqtida etaklarini yopsinlar! Zero, vaqtga Yaratgandan o'zga hech zot hukm o'tkaza olmaydi. Bugun sening izmingda bo'lgan farmon ertaga – vaqt bir aylanib kelganda senga qarshi ishlab qolishi mumkin!.. Menga o'xshagan yozuvchining, ziyolining vazifasi esa eslatishdir. Olish-olmaslik har kimning o'ziga tan...

Uzun gapning qisqasi – unutmaylikki, vaqt aylanmoqda – bizning foydamizgami yoki aksiga, buni faqat va faqat O'zi biladi...

Ta'lim tizimi

# Til o'rganishga sarflangan milliardlar

**Ma'lumotlarga ko'ra, International Education «First Center» tomonidan tuzilgan reytingda ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha O'zbekiston 113 davlat orasida 93-o'rinni egallagan. IELTS imtihonini topshirish bo'yicha esa 34-o'rinda qayd etilgan. Ammo tilshunoslarning fikricha, IELTS sertifikatiga ega bo'lish bu ingliz tilini mukammal bilish degani emas. Til – bu til, IELTS esa maxsus testlar strukturasini bilish darajasini baholaydigan tizim, xolos.**
**Shu o'rinda xalqaro ingliz tilini o'rgatish tizimi darajalari bilan tanishsak: boshlang'ich (Beginner), boshlang'ichdan bir pog'ona yuqori (Elementary), o'rtachadan past (Pre-Intermediate), o'rtacha (Intermediate), o'rtachadan yuqori (Upper Intermediate) hamda ilg'or daraja (Advanced), ma'lum va mashhur IELTS...**



Bundan ikki yil avval 10 ta xorijiy til bo'yicha yurtimizda tan olingan 35 xil sertifikat bo'lib, 35 ta xorijiy sertifikatni tan olish, ularning haqqoniyligini aniqlash, qolaversa, strategiyasini tuzish, reytingini tayyorlash, amal qilish muddatiga e'tibor qaratish, da'vogarning o'tish yoki o'tmasligini aniqlash maqsadida davlat xizmatchilarining yagona elektron bazasi shakllantirilgan edi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganish uchun qator imtiyozlar ham yaratilgan. Jumladan, xorijiy til bo'yicha A2 va undan yuqori sertifikati bo'lgan maktab bitiruvchilari texnikum, kollej va litseylarga o'qishga kirishda chet tili (ingliz, nemis, fransuz tili) fani bo'yicha testdan ozod qilinadi va ularga eng yuqori ball beriladi. Bundan tashqari, ta'lim muassasalarining kamida S1 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatiga ega o'qituvchilarga har oylik maoshining 50 foizi, davlat xizmatchilariga esa 20 foizgacha qo'shimcha ustama to'lanadi.

Shu bilan birga kamida S1 sertifikatini olgan o'qituvchilarning testga kirish uchun to'lagan pullari ham davlat hisobidan qaytarib beriladi. Masalan, o'qituvchilar va 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar IELTS imtihonidan 7 yoki undan yuqori ball olsa, test topshirish uchun to'lagan 2 mln 200 ming so'm puli qaytariladi. Maktab, texnikum, kollej va akademik litseylarning kamida S1 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega xorijiy tillar o'qituvchilari esa attestatsiyadan ozod qilinadi.

Yana bir ma'lumot: Yoshlar ishlari agentligining ma'lum qilishicha, o'tgan yili xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) olgan 12,3 ming nafar yoshlarga 21,7 mlrd so'm imtihon topshirish xarajatlari qaytarib berilgan. Shundan IELTS – 8275 nafar, TOEFL – 30 nafar, GMAT – 13 nafar, SAT – 960 nafar, rus tili – 2864 nafar, koreys tili – 77 nafarni tashkil etgan. Bundan tashqari, qo'shimcha 9 ta test (xorijiy til va imtihon turlari) sinovlarining xarajatlari ham qoplab berilgan. Darvoqe, bu boradagi imtiyozlar jurnalistlar va tahririyat xodimlarini ham chetlab o'tmagan. Xorijiy tillar bo'yicha V2 va undan yuqori natijani olgan jurnalist yoki tahririyat xodimiga til o'rganish xarajatlari uchun BHMning 15 baravarigacha pul beriladi.

Ayni paytda kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rayotgan abituriyentlar uchun yana bir ma'lumot: xorijiy tillar bo'yicha B2 yoki undan yuqori darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lgan abituriyentlar ham testdan ozod qilinib, qishloq joylarda til kursi tashkil qilgan tadbirkorlarga 50 mln so'mgacha mahalliy byudjetdan bir martalik subsidiya berilishi belgilab qo'yilgan.

Yodingizda bo'lsa, Davlatimiz rahbari tomonidan 2021-yili 6-may kuni chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim", deya ta'kidlangandi.

Tabiiyki, xorijiy tillarni bilish mamlakatga xorij investorlarning kirib kelishiga, innovatsion texnologiyalar rivojlanishiga keng yo'l ochadi, yangi g'oyalar tug'ilishiga zamin yaratadi. Chet tilini biladigan mutaxassis o'zbek tilida mavjud bo'lmagan yangi texnologiyalar va bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Eng muhimi, xalqaro maydonda ishonchli investor-hamkor izlayotgan O'zbekiston tomonidan bildirilayotgan takliflar doirasi kengayadi. Bundan tashqari, madaniy integratsiya yanada rivojlanib, dunyodagi yetakchi mamlakatlarning madaniy o'ziga xosligini yaxshi tushunish va shu orqali innovatsiyalarni ko'chirib o'tkazish osonlashadi. Shu bilan birga til biluvchi mutaxassislarning ko'p bo'lishi tashqi savdo aloqalarini yuqori bosqichga olib chiqishda muhim sanaladi. Shu boisdan, ham xalqaro ekspertlar turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilish bilan birga, bir nechta xorijiy tillarda erkin muloqot qila olishlari haqida bong urishyapti.

Afsuski, ko'pchilik xorijiy til deganda faqatgina ingliz tilini tushunadi. Vaholanki, butun dunyoda fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind tillari o'qituvchilari va mutaxassislarga ehtiyoj juda katta. Shuningdek, dunyoda samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarini ta'lim tizimida joriy etib, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirish, ta'lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish metodikalarini yaratish ham kun tartibidagi dolzarb masalaga aylangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'z ona tilisini sevib, ardoqlash bilan birga xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlarning ham, mutaxassislarning ham ko'payib borayotgani juda quvonarli. Bugun dunyoning qaysi nuqtasida bo'lmasin, o'zbek yigit-qizlari eng mashhur xorijiy brend kompaniyalarida yetakchi mutaxassis, hatto rahbar sifatida faoliyat yuritishyapti. Xorijda o'qib, tajriba orttirib, bilimini vatani istiqboli yo'lida sarflayotgan yoshlarimizdan misol sifatida ko'rish mumkinki, til bilish har bir insonning hayotiga yorqinlik olib kiradi. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov uqtirganlaridek: "Til bil, til o'rgan, til o'rgat, tilda ko'p hikmat, ham o'zing, ham eling topadi izzat".

**Oybek TOSHMATOV,**
**TDYU Xorijiy tillar kafedrasi mudiri**

> Ana shunday sharoitda kuchli markazning yo‘qligi ba’zan pand bergani ham rost. Masalan, bir-ikki yil oldin bir xorij reklama agentligi ochiqchasiga tuhmat bilan chiqdi. Yoki Go‘rimir xilxonasining ochilishi bilan bog‘liq voqealarni turli rakurslardan qiyshiq talqin qilish davom etmoqda.

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
15-may, 2024-yil
№18 (1250) chorshanba



# ZANGLAGAN KALIT



## XAZINALAR QULFI NEGA OCHILMAYAPTI?

**1991-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot birlashmasida 160 ming nusxada chop etilgan “Temur tuzuklari”ga yozilgan so‘zboshi “... bu asarni chop qilib, to‘g‘ri ish qilinayotir. U, avvalambor, tarixiy o‘tmishni bilishni istagan ko‘p sonli o‘quvchi xohish-istagining hisobga olinishidir. Axir “Har bir xalq o‘z tiliga, o‘z tarixiga ega. O‘z ajdodlarini bilishni istaydi. Bu nahotki sotsializmga zid bo‘lsa? Yo‘q, zid emas, albatta” degan so‘zlar bilan tamomlangan. Kitob bosishga ruxsat etilgan 22-yanvarda qizil imperya taxti hali mustahkam edi, faqat o‘ta keskin fikrlovchi odamlargina uning tagiga suv ketganini sezayotgandi. So‘zboshida ham ozgina ishtiboh bor, oxirgi gap gensekdan iqtibos qilingan ekan. Ha, o‘sha damlar ana ro‘shnolikka endi darichalar ochilayotgan, xalqlarning o‘z ota-onalarini tanishi ko‘p ham jinoyat emasligi qimtinib-tortinib, past ovozda, o‘rab-chirmab aytila boshlagan davrlar edi. Bugun o‘sha kunlar ham tarixga aylandi, endi biz oradan 33 yil o‘tib, milliy sha’n-sharafimiz haqida baralla dunyoga jar solayapmiz. Bir asrning uchdan bir qismi davomida tarix butunlay o‘zga o‘lchamlarni taqdim etdi. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur mavzusida ham ulkan ma’rifiy ishlar amalga oshirildi.**

Buyuk ajdodimiz tarixini o‘rganish borasida bajarilgan ishlar hammaning ko‘z oldida namoyon. Bu hodisa milliy hayot tarzimizga shu darajada singib ketdiki, endi muhtasham yuksaklikdan bizning bo‘y-bastimizni dunyo ahli ko‘rmoqda, har sohada shu mezon bilan baho bermoqda. Buyuk bobokalonimiz chinakamiga milliy iftixorimizga aylandi. Ana shu mezonning o‘zi bu merosning vorislari zimmasiga ulkan yumushlarni ortmoqda. Albatta, teran ummonning bag‘ri xazinalarga boy va tuganmas bo‘lganidek, bu mavzuda har qancha so‘z yuritsak, shuncha kam bo‘lib qolaveradi. Chunki butun insoniyat tarixi, dunyoning tmavjudlik asrori ana shu haqiqatda mujassamlashgan. Shuning uchun bu borada talabchanlik bilan izhor qilingan fikrlar hech kimda ishtiboh tug‘dirmaydi. Axir hali hech kim olam asrorlarini to‘la inkishof qila olmagani borgap.

Sohibqiron bobomiz haqidagi ma’lumotlar turli ko‘rinishlarda, salmoqli ko‘lamda bizgacha yetib kelgan. Endi asosiy vazifa xuddi somon g‘arami ichidan oltin ignani izlab topgandek, tarixiy dalillarni vaqt va ilm talabidan kelib chiqib, saralash va keng jamoatchilikka tarix haqiqatini hayot haqiqati bilan uyg‘unlashtirib, jamoatchilikka yetkazishda qolgan. Dunyo tafakkur ahli Amir Temurdek muhtasham zotning hayoti va faoliyatiga juda katta qiziqish bilan qarab kelgan va bu qiziqish aslo so‘ngan emas. Zamona zayli hozirgi milliy ziyolilar bu boradagi asosiy mas’uliyatni zimmalariga olishni shart qilib qo‘ydi, chunki bu borada eng adolatli va to‘kis gapni Sohibqironning vatandoshlari aytishi farz va qarz. Albatta, bu yo‘nalishdagi yumushlar hayot qadar davom etaveradi, ilm-fanning mantig‘i shuni taqozo qiladi.

Demak, yumushning qanchalik dolzarbligi, muhimligi aniq, qilinayotgan va qilinajak ishlar ana shu mezonlar bilan baholanadi. Masalan, hazratning tarjimayi holi yuzasidan har bir dalil olamshumul tarixning bir qismi sifatida izchil mantiqiylikka asoslanishi, har bir holat atroflicha dalillanishi, ya’ni qahramon shaxsiyatining mantig‘i yaqqol namoyon bo‘lishiga xizmat qilishi bor gap. Bir holat: qadimda ham, undan keyin ham, hozir ham bu zot kimligiga qiziqish katta bo‘lganini dunyoning eng yirik tillarida turli janrdagi asarlardan, xalq kitoblaridan, og‘zaki ijod namunalaridan bilish mumkin. Endi oddiy savol tug‘iladi: ana shu xazina tasniflanganmi? Yoki bir yo‘nalishdagi asarlar qiyosiy o‘rganilganmi? Va, nihoyat, eng oddiy mantiqiy savol: hazrat Sohibqironning mukammal tarjimayi holi yaratildimi?

Agar bu savollarga «insof mahkamasi» talabi bilan javob beriladigan bo‘lsa, hali qilinishi lozim bo‘lgan ishlar navbatda turganligi ma’lum bo‘ladi. To‘g‘ri, o‘tgan yillarda bu borada ancha ishlar amalga oshirildi, tarixiy, badiiy, , hujjatli-xronologik, sahna asarlari yaratildi, ko‘plab maqolalar e’lon qilindi, ilmiy ishlar yuzaga keldi (hatto bu holdan esankirab qolgan ba’zi qitmir kishilar «Temirchi ko‘payib ketdi» degan gap ham chiqarishdi). Albatta, bunday ommaviylik yaxshi, qalam ahlining o‘z faxrli avlodiga mehrini, birinchi navbatda munosabatini yozuvda ifodalaganini qutlash lozim. Lekin masalaning bir nozik tomoni - turli uydirmayu to‘qimalardan asil tarixiy haqiqatni ajratib olishning murakkablashib ketishi, hatto mohiyatdan uzoqlashishning ko‘zga tashlangani bo‘lib qoldi. Ba’zan hammabop, jahonshumul mavzuda asosiy maqsad bir chetda qolib, o‘z shaxsini yoki bilimdonligini, hatto fidoyiligini ko‘z-ko‘z qilish, oldinga surish hollari ham uchradi.

Ana shunday sharoitda kuchli markazning yo‘qligi ba’zan pand bergani ham rost. Masalan, bir-ikki yil oldin bir xorij reklama agentligi ochiqchasiga tuhmat bilan chiqdi. Yoki Go‘rimir xilxonasining ochilishi bilan bog‘liq voqealarni turli rakurslardan qiyshiq talqin qilish davom etmoqda. Yoki Sohibqironning Rusga yurishi, Yildirim Boyazid bilan to‘qnashuvini izohlashda o‘sha davr sharoitini hisobga olmaslik, bugunning talablari bilan voqelikka baho berish hollari uchramoqda. Shuningdek, Xitoy yurishini turli manfaatlar chig‘irig‘ida aylantirishga zo‘r berish ko‘zga tashlanmoqda. Insof bilan aytganda, bundan yetti asr oldin o‘tgan voqealarni hozirgi mezonlar bilan baholash, o‘z manfaatidan kelib chiqib yondashish umuman ma’rifiylikka to‘g‘ri kelmaydigan holat. Tarixni o‘rganish ba’zi izzattalabliklarning ildiziga suv quymasligi, aksincha, o‘sha kunlardan saboq olib, bugun o‘sha xatolarga yo‘l qo‘ymaslikdan saboq berishi kerak. O‘tmishga razm solishdan asosiy maqsad ham aslida shu.

Ana shunday holatda o‘sha kunlar suratini butun o‘lchamlari, manfiy-musbat tomonlari bilan aks ettiruvchi mukammal asarlarga ehtiyoj kuchli bo‘ladi. Holbuki, har bir kichik unsurga aniqlik kiritish, tarixiy asarlarni sharhlash, ular qatida yillar davomida yashiringan, vaqt chang-g‘ubori bilan xira tortgan haqiqatni topish borasida yumushlar yetarli. Mana, kichik bir misol. Hamma joyda qayd qilinadigan «Kuch - adolatda» degan gapning tarixi hammani qiziqtiradi va uning sharhini istalgan kishi tarix kitoblaridan qidirishga haqli. Bu haqda tayanch manbalardan hisoblanuvchi Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»laridan tayinli ma’lumot topish qiyin. Lekin ta’kidlanganidek, mavzuga doir manbalar ko‘p, qiziquvchan muxlis bu bilan chegaralanib qolmay, izlanishda davom etadi.

Ma’lumki, Sohibqiron tarixi haqidagi xalq kitoblari ham son-sanoqsiz bo‘lgan va ularning qay birlaridadir qay bir dalil yashiringan. Shu tamoyil bilan «Temur qissasi» yoki boshqa nomlar bilan atalgan (masalan «Temurnoma», «Jangnomai Temurbek» singari) kitoblarga yuzlanamiz. 1992-yilda chop etilgan «Zafar yo‘li» (O‘z ahvoli va atvori, yurush va qo‘nushi, musoliha va muhoriba voqi’otin turkiy lug‘ot birlon yozg‘on kitob. Tarjimayi hol) kitobida Sohibqiron tilidan shunday hikoya qilinadi: «Men 21 yoshga to‘lganimda sayohat qilmoqchi bo‘ldim. Lekin avval shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiydan duoyi fotiha olmoqchi bo‘ldim. Shayx ...belimga kamar bog‘lab, boshimga kuloh kiygizdi va bir chig‘anoq uzuk tortiq qildi, uning ko‘ziga «Rosti-rusti» so‘zlari yozilgan edi» (13-bet. Nashrga tayyorlovchi tarix fanlari doktori Ashraf Ahmedov). Boshqa bir xalq kitobidan mana bunday qayd uchraydi: « ...sana yuz ellik oltida (756/1355) Qutub ul-orifin Shayx Zaynuddin Abu Bakr Toyibodiy xizmatiga yetishdim. ...bosh kiyimlarini menga kiydirib, aqiqdan bo‘lgan bir uzuk berdilar. Uning ko‘zidagi naqsh «Rostiyu rasti» edi, ya’ni rost bo‘lsang, har balodan xalos bo‘lgungdir» (edi). («Temur qissasi». 2017-yil. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon tarix fanlari doktori Haydarbek Bobobekov).

Mana, kaftdagidek ko‘rinib turibdiki, bir dalil turli vaziyat va ifoda uslubi bilan sharhlanayapti. Imlosi saqlangan ko‘chirmada turli xilliklarga sharh berish ham hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolardan. Anig‘ini aytganda, tarixiy manbalarda uchraydigan minglab kishi ismlari va joy nomlarining yagona imlosi (identifikatsiya) ham tasdiqlangani yo‘q. Shunday qilib, uzuk ko‘zidagi «Rosti rusti» so‘zlari mantiqan «Kuch - adolatda» deb o‘girilda va bu jamoatchilik tomonidan qabul qilindi.

Shubhasiz, ko‘chirma keltirilgan ikki matn, ularning manbasi, umuman, xalq kitoblari, ularning ilmiy qimmati yuzasidan Sizda ko‘plab savollar tug‘ildi, ammo vaziyat nuqtayi nazaridan ularga bu o‘rinda javob berish imkoniyati cheklangan. Umuman, bobokalonimiz tarjimayi holiga doir o‘nlab nodir manbalarda, «Temurnoma» yo‘rig‘idagi xalq kitoblarida dalillar sochilib yotibdi. Ularni o‘qib, Sohibqiron hayotida tush, hazrat keltirgan rivoyat va hikoyatlar, Qur’oni karimdan keltirilgan ko‘chirmalar, o‘z hayotidan hikoyalar (ov lavhalari, oddiy odamlar bilan suhbatlar, tahlikali holatlar sharhi, ilohiy payg‘omlar), umuman, bobomiz shaxsiyatini dalillaydigan ko‘plab misollarni ilmiy tadqiq qilish kun tartibida turibdi. Shunda doktorlik ishlariga mavzu qanday tanlanadi, ularga qay darajadadir havoyi («Amir Temur ma’naviyati?» degandek) mavzular emas, aniq amaliyotdan kelib chiqib, g‘oyalar berilsa, bo‘lmasmikan, degan mulohaza ham tug‘iladi.

Nafsilambrini aytganda, hali hal qilinishi lozim bo‘lgan ko‘plab masalalar kun tartibida turgan sharoitda bizning ilmiy jamoatchiligimiz nima bilan band, degan savol ko‘ndalang bo‘lishi tabiiy. Shu o‘rinda ohorli misol. 31-mart kuni O‘zTV «O‘zbekiston tarixi» telekanalida «Tarix tilga kirganda» degan ko‘rsatuv namoyish etildi. Unda tarix fanlari doktori Shohista O‘ljayeva, Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori Xurshid Fayziyev, muzey ilmiy xodimi Komil Sultonov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi To‘lqin Hayit qatnashdi. Ishtirokchilar sohaga begona emas, ancha ish qilgan, jamoatchilikka yaxshi tanish kishilar. Ko‘rsatuv mavzusi «Sohibqiron Amir Temur» deb nomlangan ekan. Ancha tajribali boshlovchi Dilafro‘z Shonazarova tomoshabinlar ekrandan uzoqlashmasligi uchun rosa jon kuydirdi va uning e’tiroficha «Ko‘rsatuv juda qiziqarli o‘tdi».

Gap, asosan, Sohibqironning tarjimayi holi ustida aylandi. Siz balki bu mavzuda jiddiy bir manba qo‘lga kiritilibdimi yoki muhim bir tadqiqot yuzaga kelib, ko‘plab mavhum savollarga aniqlik kiritilibdimi, deb o‘ylayotgandirsiz. Ammo. «tinglaganim rost bo‘lsa agar» aytilganlarning hammasi 33 yildan buyon takrorlanib kelinayotgan gaplar edi. Rosti, mulohazalarni tinglab, bu ko‘rsatuv nimani maqsad qilganiga tushunmadik. O‘tgan yillar davomida jamoatchilik turli vositalar orqali bu mavzuda ancha-muncha ma’lumotga ega bo‘ldi. Endi vatandoshlarimiz «Sohibqiron» so‘zining ma’nosini-yu, Temurbekning otasi ma’rifatli odam bo‘lganini, Chingizxon shajarasi bilan tutashligini –yu, hokimiyatga kelguncha tortgan mashaqqatlarini yaxshi biladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘tgan yillar davomida bu mavzuda o‘nlab turli janrdagi kitoblar yaratildi, ular qayta-qayta nashr etildi. Shu o‘rganishlar jarayoni temurshunoslikni yangi bosqichga ko‘tarish, qulochni yana ham keng yozib, endi xalqaro darajada fikr yuritish, hozirgacha biz xorijdan o‘rganib kelgan bo‘lsak, endi ularga dars berishimiz lozimligini ta’kidlamoqda. TVda yangragan fikrlarni eshitib, bu yurtdoshlarimiz zohid faylusufdek turmush tarzini tanlagan ekanmi yoki tahannus ibodatini ado etishga berilib ketibdilarmi, deb o‘ylaysiz. Olimlar tomonidan yangragan «Tug‘luq Temur bilan shartnoma tuzib...», «Ilyosxo‘ja bostirib kelganda olovlar yoqqan», «xashaklarni otning dumiga bog‘lab, baqirib chiqqan, shundan keyin qaytib ketgan» singari mulohazalar na ilmga, na mavzuga taalluqli. Gaplarning kelishidan Sayramda yosh Ahmad so‘ymay qochirgan xo‘roz Keshga kelib qolgan ekanmi? degan xayolga borasiz...

Umuman, har qancha bo‘lganda ham tomoshabinga yangi yoki tasavvurlarni kengaytiradigan axborotlarni yetkazgan ma’qul. Holbuki, yumushlar ancha jiddiy, hatto fidoyilik bilan ishga kirishishni talab qiladi. Eng dolzarb vazifalardan biri – hazratning barcha mulohazalarni o‘zida jamlagan va betimsol tal’atini to‘la ifodalaydigan mukammal tarjimayi holini yaratish bo‘lib qolmoqda (bir dalil: sho‘ro olimlari yo‘qsillar dohiysining mukammal tarjimayi holini yaratgan edilar va u o‘n sakkiz kitobdan iborat edi, balki yigirmata ham bo‘lgandir). Holbuki, insoniyat tarixida jiddiy yumushlarni bajargan, dunyoning ko‘plab jumboqlariga yechim topgan, savollariga javob qaytargan zotning hayot yo‘li inson qavmi uchun qiziqarli. Hozirgacha bu borada ko‘plab sa’y-harakatlar bo‘lgan. Ayniqsa, xorijlik olimlarning urinishlarini alohida ta’kidlash lozim. Dastlabki harakatlar Gonzales de Klavixo, Iona ota tomonidan bo‘lgani aniq. Keyin juda ko‘plab G‘arb olimlari bu tarixni yozdilar. Yaqin o‘tmishda esa Lyusen Keren yoki Jan Pol Ru o‘z kuchini sinab ko‘rdi. Bu yumushlar shunchaki tajriba bo‘lib, maqsadga to‘la erishilgani yo‘q. Ana shu mezonning o‘zi bu merosning vorislari zimmasiga ulkan yumushlarni ortmoqda. Qolaversa, bu bitiklarda haqiqiy tarixga, islom dini ruhiyatiga, milliy mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan o‘rinlar ko‘p. Demak, bu yumushni bizning olimlarimiz butun ko‘rkamligini namoyish etadigan darajada uddalashlari mumkin.

Tariximizga murojaat afkor omma qarshisida ulkan tog‘ning yuzidan pardani ko‘targandek taassurot qodirdiki, bu tarixning vorislari qilinishi shart bo‘lgan ishlar qarshisida biroz shoshib qolgandek taassurot paydo bo‘lmoqda. Negaki, amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishlarning ko‘lami juda ulkan, bosqichma-bosqich, pillapoyama-pillapoya kashf etilishi kerak bo‘lgan muhtasham obidaga o‘xshaydi.

**Hakim SATTORIY**

---

✓ Kuting!

**Vasila FAYZIYEVA:**



# MILLIY MUZEY

## FONDIDA ELEKTRON MA’LUMOTLAR BAZASINI YARATISH JUDA ZARUR

Kelgusi sonlarda

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
15-may, 2024-yil
№18 (1250) chorshanba

«Биз юзага келган 153 млн сўм қарздорликни инкор қилмаяпмиз. Аксинча, уни тўлаш тарафдоримиз. Қолаверса, 700 гектар майдондаги каврак ҳосилини хорижий ҳамкорларга сотиш арафасида эдик. Биласизми, у лалми майдонда ўсади. Бу йил Ҳиндистон ва Малайзиядан чиққан харидорлар билан ўзаро келишувимиз ҳам бор эди».

## ОЛИЙ СУД РАИСИ
### БАХТИЁР ИСЛАМОВ ДИҚҚАТИГА!

# ЖАНОБ СУДЬЯ, КИМНИНГ БУЮРТМАСИНИ БАЖАРЯПСИЗ?





### Ёки жиззахлик фермер Нодира Қодировани сарсон қилишдан ким манфаатдор?

Ушбу мақола Жиззах шаҳридаги 36-Пахтакор сайлов округидан Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатлигига сайланган «Миллий тикланиш» демократик партияси Марказий Кенгаши раиси Алишер Қодиров номига келган шикоят асосида ёзилди.

Журналист суриштируви жараёнида аниқландики, Нодира Қодирова ва унинг турмуш ўртоғи Бахтиёр Қодировни жиноятчига айлантириш катта эҳтимол билан кимнингдир буюртмаси асосида амалга оширилган. Шубҳасиз, бундай хулоса Республика Бош Прокуратураси, Ички ишлар вазирлиги ва бошқа ҳуқуқ-тартибот идоралари мутасаддиларининг эътиборини тортади. Чунки бугун Ўзбекистонда адолат мезони тушунчасига инсон манфаати нуқтаи назаридан ёндашиляпти. Мақола қаҳрамони Нодира Қодирова вакили бўлган мулкдор ва тадбиркорлар қатламига биринчи навбатда моддий неъмат яратиш баробарида иш ўринлари ташкил этувчи куч деб қараляпти.

Шунинг учун ҳам жамиятда ушбу қатлам вакиллари фаолиятига либералроқ ёндашув шаклланди. Уларга имтиёз ва преференциялар эшиги кенг очилди, ҳатто иш жараёнида хатога йўл қўйилса ҳам, тузатиш шарти асосида кечиримлилик қилиняпти.

Аммо Фориш туманида рўйхатдан ўтган «Oltin kuz Akmal» Масъулияти чекланган жамияти раҳбари Нодира Қодированинг «хато»ларига нисбатан жуда катта «меҳр» билан муносабат билдирилаётгани ёки жайдарисига айтганда, хатоларнинг ўйлаб топилгани таажжубланарли, албатта.

Шунинг учун ҳам мақолани тайёрлаш жараёнида жавоби йўқ кўплаб саволларга дуч келдик. Мақола қаҳрамонини таниган-билган юзлаб одамлар учун ҳам энг қийин савол шу: бу ишлар ортида ким турибди?

Хуллас, қўлимдаги ҳужжатларнинг нусхаларию, уларга тиркалган иловаларни қайта-қайта варақласамда юқоридаги саволларга жавоб топа олмадим. Келинг, Нодира Қодированинг таҳририятга-ю, республикадаги мутасаддиларга йўллаган арзномалари билан танишайлик.

«Мен 1964 йилнинг 19 июлида Жиззах вилоятининг Шароф Рашидов туманида туғилганман. Миллатим ўзбек. Маълумотим олий, уч нафар фарзандим, 8 нафар неварам бор. Анчадан буён оилавий тадбиркорлик билан шуғулланамиз. Эсимда, 2019 йили Президентимиз вилоятимизга ташрифлари чоғида лалми ер майдонларида доривор ўсимликлар ва узумзорлар барпо этишни тадбиркорларга тавсия қилиб, бу борада масъулларга тегишли кўрсатмалар берган эдилар. Шундан руҳланиб, оила аъзоларим билан вилоятнинг Фориш туманидаги “Дўстлик” МФЙ ҳудудидан туман ҳокимининг 2019 йил 26 апрелдаги 2310-сонли қарори асосида 1050 гектар ер майдонини 30 йилга ижарага олдик ва бу бўйича туман ҳокимлиги ҳамда «Oltin kuz Akmal» МЧЖ ўртасида ер майдонини узоқ муддатли ижарага олиш шартномаси тузилди. Олинган ернинг 700 гектарига доривор ўсимлик – каврак уруғини, 175 гектарига узум кўчатларини, 10 гектарига турли мевали дарахт ниҳолларини қадаб, иш бошладик. Шу тариқа тақир чўлда яшил маскан – боғ пайдо бўла бошлади.

> ДЕЯРЛИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН 1050 ГА ЕР МАЙДОНИ ҲОЗИРДА ЯНА САҲРОГА АЙЛАНМОҚДА. НЕ АЗОБЛАРДА ОЛИБ КЕЛИНГАН УСКУНАЛАР ЗАНГЛАБ, ХАРОБ АҲВОЛГА КЕЛДИ, УЗУМЗОР-У БОҒЛАР ҚУРИБ КЕТМОҚДА. БУНДАН ҲАМ ЁМОНИ 7 ЙИЛГА ОЛИНГАН 744 МИЛЛИОН СЎМ КРЕДИТ ЎЗ ФОИЗЛАРИ БИЛАН БАНКДА «БОЛАЛАБ» ЁТИБДИ

Турли идоралар, хусусан, Жиззах вилояти ва Фориш тумани ҳокимлиги мутасаддилари бизни қўллаб туришди. Амалга ошираётган саъй-ҳаракатларимиз самараси ўлароқ, Республика Узумчилик ва виночиликни ривожлантириш агентлиги томонидан ҳудудимизда 5 дона тик қудуқлар қазиб берилди. 175 гектар майдонда томчилатиб суғориш технологиясини жорий қилганимиз учун 1 млрд 400 миллион сўм, жами 2 млрд сўм субсидия ажратилди. Хуллас, ишларимиз юришиб, 83 нафар одам доимий ва мавсумий иш билан таъминланди».

Ҳа, чиндан ҳам қақраб ётган чўлни обод қилиш осон иш эмас. Шу боисданми, ҳар тугул бу ерга келиб тадбиркорнинг самарали фаолияти билан танишиб кетувчиларнинг сони кўпайди. Тўғриси, ҳали қилинадиган ишлар кўп, режалар катта эди. Бироқ икки йилга етар-етмас жамият фаолиятига кўз тегди. Ишлар тақа-тақ тўхтади ва бу ҳолат ҳозиргача давом этяпти... 2021 йилнинг 20 апрелида мазкур МЧЖ билан Андижон вилоятида рўйхатдан ўтган, бироқ Тошкент шаҳрида фаолият юритувчи «HAMKOR AGRO LUX» МЧЖ ўртасида гибрид маккажўхори уруғини сотиб олиш бўйича 37-сонли шартнома имзоланади.

«Биз турадиган манзил билан Фориш тумани ўртасидаги масофа нақд 100 км.ни ташкил этади. МЧЖ фаолияти билан боғлиқ турли югур-югурлару, молиявий ҳисоботлар ва яна аллақанча ташвишлар сабаб соғлиғим ёмонлашди. Шундан сўнг, 2021 йилнинг 8 январида таъсисчиларимиздан бири –турмуш ўртоғим Бахтиёр Қодировга ишончнома ёзиб бердим. Шундан сўнг, турмуш ўртоғим маккажўхори уруғини сотиб олиш учун «HAMKOR AGRO LUX» МЧЖ билан 37-сонли шартномани шу ишончнома асосида имзолади. Умумий қиймати 180 млн сўмлик 150 қоп уруғликнинг 15 фоиз тўловини яъни 27 млн сўмини 130-сонли тўлов топшириқномасига асосан олдиндан тўладик. Ўртада 153 млн сўмлик ўзаро қарздорлик юзага келди. Имзоланган шартнома ва берилган ваъдага кўра, экилган ҳар гектар маккажўхори майдонидан 8-10 тоннадан ҳосил олишимиз, ҳосил йиғилгунча «HAMKOR AGRO LUX» МЧЖ бизни тегишли кимёвий ўғитлар, агроном мутахассис билан таъминлаши лозим эди. Бироқ бундай бўлмади.

Етказиб берувчи корхона раҳбари Улуғбек Ғофуров жўнатган Ихтиёр исмли агроном далага келиб, тайёрлаб қўйилган 100 гектарлик майдонга қаради-да, кунлар исиб, экиш вақти ўтганлигини айтди ва харажатга куйиб қолмаслик учун тайёр майдоннинг 20 гектарига маккажўхори уруғини экишни тавсия қилди. Шу билан у жўнаб кетди. Ўзимиз маккажўхорини билганча парвариш қилдик. Бироқ агрономнинг айтганлари рост чиқиб, 20 га экин майдонидан бор-йўғи 900 кг ҳосил олдик, холос».

Нодира Қодированинг баён этишича, Улуғбек Ғофуровнинг барча гапларию, ваъдалари ёлғон бўлиб, унинг мақсади омборхонасида туриб қолган уруғликни сотиш бўлган, холос.

«Биз юзага келган 153 млн сўм қарздорликни инкор қилмаяпмиз. Аксинча, уни тўлаш тарафдоримиз. Қолаверса, 700 гектар майдондаги каврак ҳосилини хорижий ҳамкорларга сотиш арафасида эдик. Биласизми, у лалми майдонда ўсади. Бу йил Ҳиндистон ва Малайзиядан чиққан харидорлар билан ўзаро келишувимиз ҳам бор эди».

Тақдим этилган ҳужжатларни ва катта-кичик идораларга йўлланган мурожаатларни ўқий туриб, бир масалага ҳеч тушунолмадим. Эътибор беринг, 37-сонли олди-сотди шартномаси иккала МЧЖ масъуллари томонидан имзоланган. Ушбу ҳужжатнинг 7.3 банди – низоларни бартараф қилиш тартибида – иккала томондан бирининг айби билан низо келиб чиқса, муаммоли масала иқтисодий судларда кўриб чиқилиши белгилаб қўйилган. Хўш, унда нега мазкур масала жиноят ишлари бўйича Жиззах шаҳар судида судья Ғиёсиддин Ялгашев ва ундан олдин Жиззах шаҳар ИИБ терговчиси Нодир Асқаров томонидан кўриб чиқилди?!

«HAMKOR AGRO LUX» МЧЖга умуман алоқаси йўқ бўлган фуқаро Отабек Юнусовнинг шикоят аризасига ҳуқуқ посбонлари нега бунчалик «меҳр» билан эътибор қаратишяпти?

Ҳамма гап шундаки, 2022 йилнинг март ойи охирларида Улуғбек Ғофуров 153 млн қарздорликни ундириш учун Жиззах вилоят ИИБга мурожаат қилади. Тезкор вакиллар ҳолатни батафсил ўрганиб, бу масала иқтисодий судлар томонидан кўриб чиқилишини унга тушунтиришади. Аммо у бу ҳақиқатни тан олгиси келмайди. Шундан кейин яна бир бор бегона шахс – Отабек Юнусов орқали Жиззах шаҳар ИИБга мурожаат қилади.

«Мен «HAMKOR AGRO LUX» МЧЖнинг расмий диллериман, шу боис қарздорлик менга тўланиши керак, дея иддао қилинади», унинг шикоятномасида.

Хуллас, худди шу хат асосида 2023 йилнинг феврал ойи бошларида шаҳар ИИБ терговчиси Нодир Асқаров томонидан «Oltin kuz Akmal» МЧЖ иш бошқарувчиси Бахтиёр Қодировга нисбатан Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 168-моддаси 4-қисми «а» банди билан жиноят иши қўзғатилади. Халқимизда хатга тушдинг – ўтга тушдинг, деган нақл бор! Хуллас, терговчи Нодир Асқаровнинг «хатига тушган тадбиркор»га нисбатан 2023 йилнинг 18 май куни жиноят ишлари бўйича Жиззах шаҳар судида судья Ғ. Ялгашев раислигида бўлиб ўтган суд муҳокамасида иштирок этган Б.Қодиров ўзига нисбатан даъвогар О Юнусовни умуман танимаслигини, шу боис у билан олди-бердиси йўқлигини, агар бу шахс «HAMKOR AGRO LUX» МЧЖда ишласа ишга қачон қабул қилинганлиги тўғрисидаги буйруқ нусхасини, умуман унинг расмий диллерлик шартномасини кўрсатишини ва судга бу ҳужжатларни тақдим этишини сўрайди. Энг қизиғи, ўзини даъвогарман дея кўкрак керган Отабек Юнусов талаб қилинган ҳужжатларнинг бирортасини ҳам судга тақдим эта олмайди. Ғалати ҳолат, даъвогарнинг қўлида бирон ҳужжати бўлмаса, ҳуқуқ посбонлари нимага асосланиб жиноят ишини иш юритувга олишди? Яна бир гап: бўлиб ўтган суд мажлисида судья Ғ.Ялгашев имзоланган 37-сонли олди-соти шартномасига «Oltin kuz Akmal» МЧЖ раҳбари Н.Қодирова имзо чекиши лозим эди, шу боис у буткул ноқонуний ҳужжат, дея важ келтиради. Бинобарин, Н.Қодирова томонидан берилган 2021йилнинг 8 январида берилган 2-сонли ишончнома Республика Адлия вазирлигида 2023 йилнинг 27 май санасида рўйхатдан ўтган ишончнома талабларига тўлиқ жавоб беради.

Хуллас, чўлда боғ яратаётган кекса тадбиркор шу тариқа суд маҳкамасига тортилди. Энг ачинарлиси, деярли ўзлаштирилган 1050 га ер майдони ҳозирда яна саҳрога айланмоқда. Не азобларда олиб келинган ускуналар занглаб, хароб аҳволга келди, узумзор-у боғлар қуриб кетмоқда. Бундан ҳам ёмони 7 йилга олинган 744 миллион сўм кредит ўз фоизлари билан банкда «болалаб» ётибди.

– Энг ёмони, – дейди Н.Қодирова ўз фикрини давом эттирар экан. – 2023 йил 18 май куни бўлиб ўтган суд жараёнидан сўнг турмуш ўртоғим Б.Қодировни йўқотиб қўйдик, айни кунда у ерда ҳам кўкда ҳам йўқ. Жиноят ишлари бўйича Жиззах шаҳар суди эса унга нисбатан қидирув эълон қилиш бўйича ажрим чиқарди. Гоҳида ўйлаб қоламан, 60 ёшни қоралаган одамлар уйда невара суйиб ўтириш ўрнига негаям саҳрода боғ яратдик. Умуман, шу ташвишлар бизга керакмиди?! Мен бир нарсани аниқ биламан ҳақиқат барибир юзага чиқади. Турмуш ўртоғимга қасд қилганлар, унинг фаолиятига юзаки, кўр-кўрона баҳо бераётганлар албатта, қонун олдида жавоб беришади…

Мақола аввалида Янги Ўзбекистонда адолат мезони тушунчасига инсон манфаати нуқтаи назаридан дадил ёндашилаётганини урғулагандик. Дарҳақиқат шундай. Бугун қилинган ва қилинаётган ҳар бир ҳаракат замирида фақат шу мақсад ва ғоя мужассам. Зотан, охирги 7 йилликда Президентимизнинг шахсий ташаббуси билан амалга оширилаётган ислоҳотлар ва унинг ёрқин самаралари фикримизнинг тасдиғидир.

Бироқ… айни кунларда республиканинг энг салоҳиятли, забардаст, ҳар жабҳада пешқадам вилоятларидан бири саналган Жиззахда юз бераётган юқоридаги ҳолат одамни ўйга толдиради. Саволлар, мулоҳазалар, турли фикрлар бир-бирига гал бермай «туғилаверади». Умуман олганда, бир тадбиркорни очиқдан-очиқ оворайи сарсон қилиб, унинг фаолиятига сунъий тўсиқ қўйишдан кимлар манфаатдор ўзи?! Ёки бу ерда биз англамаган яна бошқа сирли ҳилқатлар борми?!

Хуллас, айтаверсак гап кўп. Мақолага нуқта қўяр чоғимизда дилда бир умид пайдо бўлди, ўйлаймизки, республикадаги соҳа мутасаддилари, айниқса, Олий Суд раиси Бахтиёр Исламов ва унинг «командаси» юқоридаги ҳолатларни батафсил ўрганиб чиқишади ва муаммоли вазиятга одилона ечим топишади.

**Абдуғаффор ОМОНБОЕВ**
**«Милий тикланиш» мухбири**

✓ Имконият

## 167 нафар хотин-қиз имтиёз асосида таҳсил олмоқда

**Мамлакатимизда хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳамда гендер тенглигини таъминлаш, оила, оналик ва болаликни ҳимоя қилиш, аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш, улар учун янги иш ўринларини яратиш, шунингдек, меҳнат ва турмуш шароитларини яхшилаш борасида кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.**

Президентимиз ташаббуси билан олий таълим муассасаларига алоҳида мезонлар асосида хотин-қизларни қўшимча давлат гранти асосида қабул қилиш тартиби ва бу борада амалга оширилаётган ишлар юқорида қайд этилган фикрларга ёрқин мисолдир.

Хотин-қизлар учун олий таълим муассасаларига берилган грант ўринларининг 4 фоизи миқдорида қўшимча давлат гранти ажратилиши мамлакатимизда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш, уларнинг ҳаётда, жамиятда ўз ўринларини топиши учун берилган кенг имконият бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Олий таълим муассасаларига қўшимча давлат гранти асосидаги қабул кўрсаткичлари доирасида эҳтиёжманд оилалардаги хотин-қизларга танловда иштирок этиш учун тавсиянома бериш ва уларни ўқишга қабул қилишни ташкил этиш тартиби тўғрисида”ги қарорда белгиланган тартиблар бўйича ўтган йили ана шундай имтиёз асосида ўқишга кириш учун Андижон вилоятидаги 2 минг 812 нафар эҳтиёжманд, шунингдек, 997 нафар камида 5 йил иш стажига эга бўлган хотин-қизга тавсиянома берилган. Тавсиянома тақдим этилган опа-сингилларимизнинг 167 нафари мамлакатимиздаги турли олий ўқув юртларига ўқишга қабул қилиниб, бугун улар давлат гранти асосида таълим олмоқда.

– Оила ва хотин-қизлар бўлими томонидан берилган тавсиянома асосида ўқишга кирганман, – дейди Андижон давлат университети математика факультети талабаси Роҳилахон Абдухалилова. – Тўплаган балим билан мен контракт асосида ўқишим лозим эди. Лекин Президентимиз томонидан хотин-қизлар учун берилган имтиёз, тавсиянома туфайли мен давлат гранти асосида таҳсил олаяпман.

Юртимизда мен каби ёшларга кенг имкониятлар эшиги очиб берилаётганлиги, эҳтиёжманд оилалар доимий қўллаб-қувватланаётганлигидан беҳад мамнунман. Бунинг учун Президентимиздан, ҳукуматимиздан чексиз миннатдорман.

Олий ўқув юртига кириши учун хотин-қизларга берилган имтиёз эҳтиёжманд, ижтимоий ҳимояга муҳтож опа-сингилларимизнинг ҳаётда ўз ўрнини топиши, жамиятнинг фаол аъзосига айланиши учун кенг имкониятлар эшигини очиб бермоқда.

**Ф. УБАЙДУЛЛАЕВ,**
**ЎзА мухбири**

# 198 НАФАР МИЛЛАТ ОЙДИНЛАРИ ОҚЛАНДИ





**Узоқ йиллар “Ишчи-деҳқон давлати” ниқоби остида шон-шарафларга кўмилган собиқ шўро тузуми даврида Қатағон этилганлар орасида жадидлар ва зиёлилар сони тахмин қилинганидан кўпроқ эканига гувоҳ бўляпмиз. Шуниси, қувонарлики, уларнинг “иш”и давлат миқёсида ўрганилишига рухсат берилганидан кейин адолат эшиклари каттароқ очилмоқда. Хусусан, Давлатимиз раҳбарининг 2020 йил 8 октябрдаги “Қатағон қурбонларининг меросини янада чуқур ўрганиш ва улар хотирасини абадийлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармойиши асосида ана шундай инсонларнинг пок номлари тиклана бошланди. Ўтган ҳафта суд қарори билан яна 198 нафар шахс номи оқланди.**

Шўролар даврида қатағон қилинганларнинг оилалари, қариндош уруғлари ҳам ноҳақлик қурбони бўлдилар. Айтайлик, оиланинг бир аъзоси қораланиб, отувга ҳукм этилса, тезда унинг мол-мулки мусодара этилган, яъни бошқа оила аъзоларининг кейинги ҳаётига бу жуда катта таъсир қилган. Аммо қораланганлар номини оқлаш, хатоларини тузатиш учун узоқ йиллар талаб этилаётгани бундай “хато”ларнинг оз эмаслигидан далолатдир.

Жумладан, 1930 йилларда Ўзбекистон ССР Олий суди раиси лавозимида ишлаган Саъдулла Қосимовга қўйилган айблов бекор қилиниб, унинг номи оқланиши учун деярли бир асрга яқин вақт керак бўлди. С.Қосимовнинг набираси Ф.Саъдуллаев бу ҳақда шундай дейди: “Бобомнинг ноҳақ айбланганини исботлаш учун отам умрининг охиригача курашди, аммо ҳеч нарсага эриша олмай, бу дунёдан армон билан ўтиб кетди. Бобомнинг оқланишини кўриш менга, бошқа набиралари, чевараларига насиб қилганидан беҳад мамнунмиз”.

Бўлиб ўтган олий суд мажлисида Саъдулла Қосимовга қўйилган айблов ҳукми устидан С.Қосимовнинг набираси берган кассация шикояти кўриб чиқилди. Натижада С.Қосимов ва бошқа 7 нафар шахснинг ҳаракатларида жиноий ҳаракат бўлмагани ва жиноий иш юз бермагани аниқланиб, чиқарилган айблов ҳукми бекор қилинди.

198 нафар шахсга оид 11 та жиноят ишини оқлаш ҳам маълум бир муддат талаб этганини тўғри тушуниш керак. Зотан, бу шахслар Ўрта Осиёдаги Бирлашган давлат сиёсий бошқармаси қошидаги Учлик кенгашлари махсус йиғилишининг 1930-1938 йиллардаги қарорларига кўра, Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри, Хоразм, Бухоро, Жиззах ва Наманган вилоятлари ҳудудларида гўё аксилинқилобий мақсадларда ҳаракатлар ва қуролли қўзғолонлар, террорчилик, бандитизм ва шпионаж содир этганликда айбланишган. Шу билан бирга Туркфронт махсус бўлими ҳайъати ҳамда Бутунроссия фавқулодда комиссияси Президиуми махсус йиғилишининг 1920-1921 йиллардаги қарорларига кўра, уларга ўз даврида ўта оғир жиноят ҳисобланган босмачилик ҳаракатида иштирок этиш ҳамда ЎзССР Олий судининг 1938 йилдаги ҳукмига кўра, партия ташкилотларида аксилшўро фаолиятини амалга ошириш айби қўйилган.

> РЕСПУБЛИКА ИШЧИ ГУРУҲИ ҚАТАҒОН ҚУРБОНЛАРИНИНГ МЕРОСИНИ ЯНАДА ЧУҚУР ЎРГАНИШ, УЛАР ХОТИРАСИНИ АБАДИЙЛАШТИРИШ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА МУВОФИҚЛАШТИРИШ БЎЙИЧА ОЛИБ БОРГАН САЪЙ-ҲАРАКАТИ НАТИЖАСИДА ОХИРГИ ЙИЛЛАРДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚАТАҒОН ҚИЛИНГАН 1 МИНГ 31 НАФАР ВАТАНДОШИМИЗ ОҚЛАНДИ.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Бош прокурори ўринбосари томонидан юқорида кўрсатилган жиноят ишлари юзасидан Олий суднинг жиноят ишлари бўйича судлов ҳайъатига кассация тартибида протестлар келтирилди. Олий судда ўтган очиқ суд мажлисларида ушбу протестлар кўриб чиқилди ва қаноатлантирилди.

Суд мажлисида иштирок этган “Қатағон қурбонлари хотираси” давлат музейи директори, тарих фанлари доктори Бахтиёр Ҳасанов аслида миллат маърифатпарварлари бўлгану, лекин “халқ душмани”, “босмачи”, деган тамғалар билан ноҳақ айбланган юртдошларимизнинг оқлангани тарихий адолатни тиклаш йўлидаги энг эзгу ишлардан бири бўлаётганини таъкидлаб, шу йўналишдаги судга тақдим этилаётган ҳар бир ишни қўллаб-қувватлашини билдирди.

Олий суд раиси ўринбосари, жиноят ишлари бўйича судлов ҳайъати раиси Икром Муслимов раислик қилган суд мажлисларида Жиноят-процессуал кодексининг 83-моддасига асосан жами 11 та жиноят иши бўйича 198 нафар шахсга нисбатан Олий суд жиноят ишлари бўйича судлов ҳайъати кассация инстанциясининг оқлов ҳукмлари эълон қилинди.

Юқорида қайд этганимиздек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 октябрдаги “Қатағон қурбонларининг меросини янада чуқур ўрганиш ва улар хотирасини абадийлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармойиши ижросини таъминлаш мақсадида ташкил этилган Республика ишчи гуруҳи қатағон қурбонларининг меросини янада чуқур ўрганиш, улар хотирасини абадийлаштириш ишларини ташкил этиш ва мувофиқлаштириш бўйича олиб борган саъй-ҳаракати натижасида охирги йилларда совет даврида қатағон қилинган 1 минг 31 нафар ватандошимиз оқланди.

Маълум бўлишича, ҳозирда Олий судда ҳам муайян сабабларга кўра реабилитация қилинмаган қатағон қурбонларининг номларини оқлаш ва уларнинг хотирасини абадийлаштириш масалалари бўйича тузилган ишчи гуруҳи изланишлар олиб бормоқда.

**Ш.ЭШОНБОБОЕВА**

✓ Диққат! Эълон

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ЎРТАСИДА

# «ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТКАЗАДИ.

**ҒОЛИБ**

**20 МИЛЛИОН**

**сўм пул мукофоти билан тақдирланади.**

ШУНИНГДЕК, ТАНЛОВДА 30 НАФАР ҚЎШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР БЎЙИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ.

**ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҲАМДА ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА**

**2024 йилнинг сентябрь ойида – Ўқитувчи ва мураббийлар байрами арафасида топширилади.**

Мурожаат учун: (90) 245-18-10

Танлов ҳомийлари билан танишинг:

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ ЎЗБЕК ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАМҒАРМАСИ

## ЭНГ ҚИММАТ УЙЛАР ҚАЕРДА



Энди пойтахтдан беминнат “ўлан тўшагим” бўлсин, деб уй олиш илинжида мисқоллаб йиғаётганларнинг яна бироз иқтисод қилишларига тўғри келади. Боиси, пойтахтда яна уйларнинг нархи ошибди. Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар марказининг маълум қилишича, гарчи, апрель ойида иккиламчи уй-жой нархи 0,7 фоизга бироз пасайган бўлса-да, йиллик кўрсаткичларда 11,6 фоизга ошган.

Маълум қилинишича, иккиламчи уй-жой нархларининг энг юқори ўсиши – Тошкент шаҳри (23,6 фоиз), Бухоро (21,3 фоиз) ва Хоразм (20,5 фоиз) вилоятларида қайд этилган. Ўз навбатида, пойтахтда иккиламчи уй-жой нархларининг ўсиши тезлашди. Март ойида Тошкент шаҳрида иккиламчи уй-жойларнинг ўртача нархи атиги 0,2 фоизга ошган бўлса, апрель ойида мос равишда 1,1 фоизга ошган. Нарх ўсишининг энг юқори суръатлари Бектемир (3,8 фоиз), Яккасарой (3,6 фоиз) ва Чилонзор (3,1 фоиз) туманларида қайд этилган.

**Ўз мухбиримиз**

✓ Мутойиба



Саид Аҳмад акада пул кўп. Шунинг учун сафарга чиқсак, оқсоқолдан қарз сўрашни яхши кўрамиз. Берган пули вақтида қайтавермаганидан кейин устоз юрак олдириб қўйган.

Қўқонга борган эдик. Кечқурун меҳмонхонада ётиш олдидан оқсоқолдан илтимос қилдим:

– Иложи бўлса менга беш-олти юз сўм қарз бериб турсангиз. Чеккароқ магазинларда дуруст нарса топилса, болаларга олиб кетардим (у пайтда 500 сўмга катта қўй берарди).

– Эллик сўмдан ортиқ пулим бўлса буюрмасин! – деди Саид Аҳмад ака ишонч билан.

Камида икки минг билан келганини билардим.

– Шу гапингиз гап-а? – дедим.

– Эшитдингиз-а, Йўлдошали ака, оқсоқолнинг эллик сўмдан ортиқ пули буюрмайди.

Йўлдошали ака шу гапга гувоҳ бўладиган бўлди. Эндигина ечиниб ётган Саид Аҳмад ака ўрнидан туриб шимини қайтадан кия бошлади. «Ҳа» десак, «негадир этим увишиб турибди», деб баҳона қилди.

Эртасига китобхонлар билан учрашув бўлди. Энди шу воқеани ҳикоя қила бошлаган эдим, оқсоқол ўрнидан туриб кетди.

– Шошма, сен эплаб айтолмайсан, – деди. – Яхшиси, ўзим гапириб бераман. Бу ярамаслар сафарга чиқса пул олиб юрмайди. Доим мендан сўрайди. Нима, мен етимхонанинг директориманми? Кеча бергим келмади. Билмасдан онт ичиб қўйибман. Бу шум кечаси чўнтагимни қоқлаб қўйишдан ҳам тоймайди. Шунинг учун шимимни кийиб пулли чўнтагимга қўлимни тиқиб ўша ёнбошимни ерга босиб ётдим. Эрталаб туриб бир акса урган эдим, оғзимдан жиринг этиб битта сўлкавой отилиб кетди. Сўлкавойни оғзимга солиб ётган эканман. Эсимдан чиқиб кетибди.

Яхшиям акса урганим, худо кўрсатмасин, ҳиқичоқ тутса борми, лиқ этиб ичимга кетиб қоларди...

Ана унда кўрардинг томошани!

**Ўткир ҲОШИМОВ**

fb.com/milliytiklanish.gazetasi
t.me/milliy_tiklanish_gazetasi
www.mtgazeta.uz
milliytiklanish2022@umail.uz

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi

«Milliy tiklanish»
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
www.mt.uz
№18 (1250)
15-may 2024-yil, chorshanba




Бир хатар босаётир она сайёрамизни,
Тошқинлару тўзонлар, тўфонлардан ваҳмкор.
Дўппини ерга қўйиб, кўрмасак чорамизни,
Одам зотин маймунга айлантиргай у баттол.
Гўрдан чиққан арвоҳмас. Тушган эмас осмондан,
Зоти ҳам инсу жинсмас, лекин... йўрға қадамдир.
Айтай десам тилим йўқ, айтмай десам фалажман,
Машъум бало-қазонинг жисми, афсус, одамдир.
Одам...
Аммо, одамнинг қай хилига мансуб у,
Манзил-макони қайда, қайда наслу насаби?
Урғочи шайтондан-да беандиша, тантиқ у,
Иблисга учрагандек чатнаб кетар асабинг.
Мажнун одамни кўрдик, қайда бормиш қор одам,
Темир одамлар билан давра қурдик бемалол.
Бу каслар қаршисида яратгувчи Яздон ҳам
Қабонга дуч келгандек ҳайронадир, эҳтимол.
Бири бесоқол, бирин куйлаги беёқалик,
Бири илиб олгандир жанда-жунда жинсини.
Киндигига тушади бировининг соқоли,
Бошқаси ўзгартирган жисминию жинсини.
Хотин – хотинга- хотин, эрмиш, эркак – эркакка,
Бола-чақа, оила - баргихазон – бесамар.
Замин чаппа айланиб, ўт кетдими фалакка,
Алҳазар денг яхшилар, алҳазар денг, алҳазар!..
Жаҳолат йўлларига чоҳ қазайлик бирлашиб,
Кўнгилларга маърифат, маънавият улашиб.

2

Номига қаранг, гўё мусичаю беозор:
«Оммавий маданият»...
Сира йўқдай иллати.
Аждаҳодек ютмоқда аммо шу ғаюр иллат,
Шайтанат саробида саргашта раиятни.
Тоғлардан нари эди яқингача бу савдо,
Бугун сувилон каби кирмоқда ичимизга.
Кўкни қора булутдек тўсиб олгай сувайдо,
Қушдек ҳушёр турмасак эртаю кечимизда.
Лабларин дўрдайтириб, қовоқларин кесганлар,
Чамандаги янтоқдай кўринмоқда ғилжайиб.
Иштончада юрибди, наргайин занг босганлар,
Келин-қизи олдида беорларча тиржайиб.
Тирноқ - тикан, соч - чайла, шир яланғоч, телбаҳол,
Ўзларини ҳезалак – ЛГБТ дермишлар.
Илкис хазина топган савдойидек бахтиёр,
Озодлик – бу, бу – бахт деб, ҳурлик ғамин ермишлар.
Тош тегдими азизлар, метин сўнгагимизга,
Ё чувалчанг, бақалар босдими йўлимизни?
Қанча тоқат қилгаймиз, сўниб – сўнмагимизга,
Наҳотки чап қўлимиз, кесгай ўнг қўлимизни.
Очофат арилардек ғофиллар, беparволар,
Қул бўлса интернетнинг қармоғига, тўрига.
Кўриб бундай риёни, Тоҳирлару Зуҳролар,
Отабек, Кумушойлар тик турмасми гўрида?..
Бир-биримиз асрайлик, бир-биримиз қўллашиб,
Юракларга маърифат, маънавият улашиб.

3

Подадан олдин чанг бу, деган ўйга борманг, йўқ!
Бир тошнинг қулашидан талқон бўлган тоғлар бор,
Буюк салтанатларни кулдон қилган битта чўғ,
Бир томчидан заминнинг юзида минг доғлар бор.
Кўзни очинг, мудраган таналарни уйғотинг,
Яъжуж-маъжуж мисоли қутурмоқда шум офат.
Беандиша касларнинг кўкрагига ўқ отинг,
Хиёнат-ку, ахир бу – келажакка хиёнат.
Жалолиддин ким учун қонлар тўкди жангларда,
Кимлар учун Улуғбек давот қилди осмонни.
Навоий ҳазратлари шомни улаб тонгларга,
Кимлар учун яратди беш достон - беш бўстонни.
Ҳеч ўйлаб кўрдингизми қари Очун сирларин:
Нечун ёлғончи бисёр, не боисдин чинчи йўқ.
Нега ювмоқ мушкулдир басир кўнгил кирларин,
Нега Давлатбошининг ҳаловати, тинчи йўқ?
Ахир, икки Ренессанс қурганларга фарзандмиз,
Мағрибдан Машриққача ҳилпираган туғимиз.
Бугун жўшқин уммондек туйғуларга ҳамдаммиз,
Чақмоқдек чақнаётир юракдаги чўғимиз.
Ибо, ҳаё, садоқат момолардан қолган тож,
Илдизимиз сув ичган Зардушт булоқларидан.
"Ушшоқ", "Муножоат"у "Гиря"ларга қучоқ оч,
Беғамни уйғотайлик тортиб қулоқларидан.
Дерлар, отлар тишлашиб, ит топишгай искашиб,
Ўғри, каззоб, қаллоблар ёқалашиб, муштлашиб;
Урчиётир манқуртлар ёввойи подалардек,
Бир-бирига суйкалиб, илакишиб, илашиб.
Гуллар экдик яна бир Уйғониш саройига,
Қаршимизда сафланмиш ўрлар, қирлар, довонлар.
Қутқармасак ноқисни кир, ва иркит лойидан,
Довонларни қай тарзда забт этгаймиз, ёронлар?
Бас-е!
Энди томоша қиладиган замон, бас!
Томирдаги дарёлар ол қонларга айлансин.
Кимки беғам – оломон, биз эмас, биз томонмас,
Ол қонлар оловланиб, исёнларга айлансин!
Карвонимиз йўлдадир, сарбонимиз ўтюрак,
Тарих муҳрлаётир энг халқона достонни.
Ушалмоқда бирма-бир минг йиллик армон, тилак -
Ўзбегим қураётир Янги Ўзбекистонни! -
Янги Ўзбекистонга нур сочайлик бирлашиб,
Кўнгилларга маърифат, маънавият улашиб.

# САВОЛ БЕРИНГ!

*– Алимент тўловчи шахсга хорижга чиқиши учун тақиқ қўйилган бўлса, уни қандай бекор қилиш мумкин?*

Ботир Акмалов,
Навоий вилояти

–Амалдаги қонунга кўра, алимент ундирувчининг ижрони тўхтатиш ҳақидаги аризасига асосан, шунингдек, вояга етмаган болалар таъминоти учун алиментлар олдиндан тўланган ёки алимент тўлаш мажбуриятини таъминлаш учун гаров шартномаси тузилган бўлса, давлат ижрочиси тўлов ёки гаров шартномаси тўғрисидаги тегишли ҳужжат олинган куннинг эртасидан кечиктирмасдан манфаатдор шахсларни, ички ишлар органларини ва Давлат чегарасини қўриқлаш органларини қарздор жисмоний шахснинг мамлакатдан чиқишини чеклаш олиб ташланганлиги тўғрисида ёзма ёки электрон шаклда хабардор қилади. Бунда гаров қиймати қонун ҳужжатларида белгиланган базавий ҳисоблаш миқдорининг (БХМ) 250 бараваридан кам бўлмаслиги лозим (82,5 млн сўм).

**Хуршида Исломбекова,**
**МИБ ходими**

*– 2 йилдан бери мактабда қоровул бўлиб ишлаб келяпман. Рафиқам мактаб директорининг синглиси бўлганини важ қилиб мени ишдан бўшатмоқчи. Бу қанчалик асосли?*

Руслан Аҳмедов
Жиззах вилояти

– Меҳнат кодексининг 121-моддасига кўра, ўзаро яқин қариндош ёки қуда-анда бўлган шахсларнинг (ота-оналар, ака-укалар, опа-сингиллар, ўғил ва қизлар, эр-хотинлар, шунингдек, эр-хотинларнинг ота-оналари, ака-укалари, опа-сингиллари ва болалари), башарти улардан бири иккинчисига бевосита бўйсуниб ёки унинг назорати остида хизмат қиладиган бўлса, бир давлат корхонасида бирга хизмат қилишлари тақиқланади. Бу қоидадан истиснолар Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 11 мартдаги 133-сонли қарорида белгиланган.

**Ҳосила Турғунова**
**ҳуқуқшунос-маслаҳатчи**



*– Қайси тоифадаги шахслар хусусий пуллик тиббиёт муассасаларида тиббий хизматни бепул олишлари мумкин?*

Анвар Жабборов
нафақадаги педагог

– Хусусий тиббиёт муассасаларида (стоматология ва косметология хизматларидан ташқари) қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ижтимоий ҳимояга муҳтож деб топилган барча шахслар бепул тиббий хизматдан фойдаланишлари мумкин. Бунинг учун уларнинг шахсини ва ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламга мансублигини тасдиқловчи ҳужжатларининг мавжудлиги асос бўлади.

**Жамила Носирова,**
**ҳуқуқшунос-маслаҳатчи**

*– Докторант қўшимча меҳнат фаолияти билан шуғулланиши мумкинми? Шу ҳақда маълумот берсангиз?*

Нафиса Маликова,
Қарши шаҳри

– Докторантнинг қўшимча меҳнат фаолияти билан шуғулланишини тақиқловчи меъёрий ҳужжат мавжуд эмас. Диссертация бўйича илмий-тадқиқот фаолиятингизга ҳалақит бермаган ҳолда, ўзингиз таҳсил олаётган илмий ташкилот ёки олий таълим муассасаси раҳбарияти билан келишилган тартибда қўшимча меҳнат фаолияти билан шуғулланишингиз мумкин.

**Олий таълим, фан ва**
**инновациялар вазирлиги**
**Ахборот хизмати**

*– Фарзандим 15 ёшга тўлди, унинг фамилиясини ўзгартирсам бўладими?*

Камола Эргашова
Сурхондарё вилояти

– ФҲДЁ органи ота-онанинг биргаликдаги аризасига биноан, бола 16 ёшга тўлгунча бола манфаатларини эътиборга олиб, унинг исмини ўзгартиришга, шунингдек, унга берилган фамилияни ҳам отаси ёки онасининг фамилиясига қараб ўзгартиришга ҳақли. 16 ёшга тўлганидан кейин ота-она розилиги олинмайди.

**Равшан Умрзоқов,**
**ҳуқуқшунос**

*–3 ёшга тўлмаган боласи бор бюджет ташкилотларида ишлайдиган аёлларга ҳафтасига иш соати қанча? Шу ҳақда маълумот берсангиз.*

Гулшода Азамова,
ўқитувчи

– 3 ёшга тўлмаган фарзанди бор, бюджетдан молиялаштириладиган ташкилотларда ишлайдиган ота-онанинг бирига (васийсига) ҳафтасига 35 беш соатдан ошмайдиган иш вақти давомийлиги белгиланган.

**advice.uz**

*– Кўчма радар ўрнатиш тартиби ҳақида маълумот берсангиз.*

Қурбоной Ҳакимова
Тошкент шаҳри

– Транспорт воситаларининг оқими ва йўл шароитини ҳисобга олган ҳолда, кўчма фоторадар ва мобил комплекслар бириктирилган ЙПХ ходимлари томонидан уларнинг кунлик дислокацияси белгиланган ва махсус мосламалардан тегишли тартибда фойдаланиш чоралари кўрилган бўлиши лозим. Кўчма фоторадар ва мобил комплекслардан фойдаланганда, ЙПХ ходими мосламанинг кўрсаткичлари билан ҳаракат тезлигини ошириб, қоидаларни бузган ҳайдовчини таништириши, унинг талаби билан мосламанинг сертификати (нусхаси)ни кўрсатиши лозим. ЙПХ ходимларининг патрул автомобилларида фойдаланиш белгилаб қўйилган тезликни ўлчаш мосламаларини ўзбошимчалик билан ечиб олиши ва хизматга алоқаси бўлмаган бошқа шахсларнинг (жисмоний ёки юридик) транспорт воситаларига ўрнатиши ҳамда хизматни ўташга алоқадор бўлмаган фуқароларни жалб қилиши қатъиян тақиқланади.

**Мунаввар Раҳимова, ҳуқуқшунос**



Ўтганларнинг охирати обод бўлсин!

«Миллий тикланиш» демократик партияси сиёсий Кенгаши ижроия қўмитаси Ўзбекистон Республикаси Маданият вазири, таниқли санъаткор Озодбек Назарбековга падари бузрукворлари
**АҲМАД ОТА НАЗАРБЕКОВНИНГ**
вафоти муносабати билан чуқур ҳамдарлик билдиради.

«Миллий тикланиш» ижтимоий-сиёсий газетаси жамоаси Маданият вазири Озодбек Назарбековга отаси
**АҲМАД ОТА НАЗАРБЕКОВНИНГ**
вафоти муносабати билан таъзия билдириб, яқинлари ва оила аъзоларига сабр тилайди.
Марҳумнинг охирати обод бўлсин!

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**
**Alisher QODIROV – kengash raisi**

Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nuriyman ABULXASAN, Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, To'lqin TESHABOYEV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shuxratjon AXUNDJANOV.

**Bosh muharrir:**
**Mirodil ABDURAHMONOV**

**TAHRIRIYAT MANZILI:**
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

**NAVBATCHI MUHARRIRLAR:**
Abdug'affor OMONBOYEV,
Mahbuba KARIMOVA
**NASHR UCHUN MAS'UL:**
Ma'murjon YO'LDOSHEV
**NAVBATCHI:**
Feruza XODJAYEVA
**DIZAYN GURUHI:**
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

**Elektron pochta:**
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

**Adadi – 5 263.**
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
**Qog'oz bichimi:** 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 521
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 03:10

**Telefon:**
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456